



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

2024-yil

2-may

payshanba

№ 18 (4660)

Postda Ha nocty

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqq boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz



TOSHKENT SHAHRI

YORDAMCHINING



KO'MAGI MUHIM

Olimjon Xo'jayev Yashnobod tumanidagi «Jarqo'rg'on» mahallasida joylashgan 274-ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika katta inspektori yordamchisi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. U mahalla tinchligi, osoyishtaligini ta'minlashda hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda profilaktika inspektorining yaqin ko'makchisi.

AYOL VA JAMIYAT

TASHABBUS KENG OMMALASHADI

Gazetamizning o'tgan sonida xabar berganimizdek, Toshkent shahar IIBB tashabbusi bilan ishlab chiqilgan «Men kuchli ayolman!» loyihasi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Quvonarlisi, mazkur loyiha tufayli ko'plab ayol-qizlarimiz hayot tarzini ijobiy tarafdga o'zgartirdi, oilalarini tikladi, ruhiy va ma'naviy oziqa oldi, o'ziga ishonch va rag'bat hissini tuydi, kasb-korga, huquqiy bilimlarga ega bo'ldi.

Keng omma tomonidan bildirilgan katta qiziqish loyihaning jamiyatga kerak ekanligini, qayd etilgan ijobiy natijalar uni amaliy

o'rganish va mamlakatga keng yoyish mumkinligini ko'rsatdi. Shu bois loyihaning 4-bosqichi yakuni bo'yicha forum o'tkazil-



di. Mazkur tadbirda IIV, Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV, Toshkent viloyati IIBB, viloyatlar IIB Huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi boshliqlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari qatnashdi.

Forum qatnashchilari poytaxtimizdagi Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi, Bosh boshqarma Yagona tezkor boshqaruv

markazi, Toshkent shahar ishsizlarni qayta kasbga o'qitish markazi faoliyati bilan yaqindan tanishishdi. Shuningdek, Bosh boshqarma qoshidagi «Shonsharaf» muzeyiga tashrif buyurdilar. Tadbir so'ngida mehmonlar e'tiboriga «Jannat – onalar oyog'i ostida» filmi namoyish etildi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATIDAN

XODIMLAR MANFAATI E'TIBORDA

Buxoro shahridagi «Turon Plaza» mehmonxonasining anjumanlar zalida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tarkibiy bo'linmalari xodimlari Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasining «Ichki ishlar vazirligi tizimidagi kasaba uyushmalarining faoliyatini takomillashtirish: muammo va yechimlar» mavzusida amaliy-o'quv seminari bo'lib o'tdi. O'quv seminarida IIV tarkibiy bo'linmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar va Toshkent viloyati IIBB hamda viloyatlar IIB kasaba uyushmalari raislari va bosh hisobchilari ishtirok etishdi.

Anjumanni IIV Tarkibiy bo'linmalari xodimlari Birlashgan kasaba uyushma qo'mitasi raisi, polkovnik



H.Maxsumov kirish so'zi bilan ochib, tadbirdan ko'zlangan maqsad xususida to'xtalib, xodimlar va ularning oila a'zolari manfaatlarini hamisha e'tibordaligini alohi-

da ta'kidladi. Seminarda, shuningdek, O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi, Sog'liqni saqlash xodimlari Kasaba uyushmasi Respub-

lika Kengashining Buxoro viloyati bo'yicha mas'ul xodimlari ham o'z ma'ruzalari bilan qatnashishdi. Bundan tashqari, ishtirokchilar «IIV tizimidagi kasaba uyushma

qo'mitalarida taftish o'tkazish tartib-qoidalarini va moliyaviy faoliyatidagi muammolar», «Xodimlarni ijtimoiy himoya qilish masalasida Xorazm viloyati tajribasi» hamda Kasaba uyushmasi badallaridan samarali foydalanish bo'yicha Andijon va Toshkent viloyatlar IIB kasaba uyushma qo'mitalari raislari amalga oshirgan ishlari borasida fikr almashildi. Shuningdek, xodimlarning manfaatlarini himoya qilishda targ'ibot ishlarini yanada kuchaytirish bo'yicha taklif va mulohazalar bildirildi.

Bahs-munozaralarga bo'y o'tgan seminarida ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga batafsil javob oldilar. Muhokama qilingan masalalar yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.

O'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



9-MAY – XOTIRA VA QADRLASH KUNI

BOTIRNING SHAVKATI QOLUR ABADIY



**Kichik serjant
Abduhalim Toshqulov**

1969-yil 25-iyun kuni Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida tavallud topgan. 1996–2000-yillarda Shahrisabz shahar IIB huzuridagi Qo'riqlash bo'limida faoliyat ko'rsatgan. 2000-yil avgust oyida Surxondaryo viloyatining tog'li hududlarida terrorchilarga qarshi kurashish paytida halok bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq, vafotidan so'ng «Jasorat» medali bilan taqdirlangan.

Bu foni dunyoda hayoti davomida savob ishlarga qo'l urmoq va avlodlarga o'zidan yaxshi nom qoldirmoq – yuksak sharaf. Bu haqda o'ylarkansan, beixtiyor, shoirning quyidagi ikki misrasi yurakda uradi tug'yon:

*Dunyoda ikki ish qolur abadiy,
Botirning shavkati, dononing so'zi.*

Haq gap. Vatanni yovuz kuchlardan himoya qilish, zarurat tug'ilganda jonini fido etish yurtsevar farzandga ham farz, ham qarz.



Otam Kitob tumanidagi Saroy qishlog'ida tug'ilgan. 1996-yildan vafotiga qadar Shahrisabz tumani IIB huzuridagi Qo'riqlash bo'limi militsioneri lavozimida xizmat qilgan. O'z ustida tinimsiz ishlashi, tirishqoqligi, topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi bilan e'tibor va hurmat qozonganini xizmatdoshlaridan ko'p eshitganman.

2000-yil 6-avgust kuni Surxondaryo viloyati Sariosiyo va Uzun tumanlarining tog'li hududlariga suqilib kirgan bir guruh diniy ekstremistlar va xalqaro terrorchi jangarilar bilan bo'lgan jangda otam qahramonlarcha halok bo'lgan.

Onam bilan 8 yil birga yashashgan. Men otam vafot etishidan o'n to'rt kun oldin dunyoga kelganman. Oilada to'rt farzandmiz. Onam Dilshoda Qulmatova bizni hech kimdan kam qilmay ulg'aytirdi. Opalarim Dilorom va Gulhoyo turmushga chiqqan, ajoyib uy bekalari. Akam Shahzod Milliy gvardiya Qashqadaryo viloyati Qo'riqlash boshqarmasi xodimi, unvoni kichik serjant.

Men ham ota kasbga ishtiyoqmand bo'lib ulg'aydim. 2023-yili O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetini tamomlab, dekabr oyida ichki ishlar organlariga xizmatga qabul qilindim. Hozir Shahrisabz shahar IIB HPB profilaktika inspektori lavozimida xizmat qilayman.

Otam kichik serjant Abduhalim Toshqulovning jasorati men uchun chinakam ibrat maktabi. Qolaversa, birga xizmat qilgan hamkasblari, do'stlari, shuningdek, viloyat IIB hamda viloyat Qo'riqlash boshqarmasi rahbariyati uni xotirlab tez-tez uyimizga kelib turishadi. Men bundan juda faxrlanaman. Demakki, yurt tinchligini asrash yo'lida mardlarcha halok bo'lgan otamning nomi mangulikka daxldor.

**Ravshan JUMABOYEV,
leytenant.**

Qashqadaryo viloyati.

SULOJA

BIRI-BIRIGA SHOGIRD, BIRI-BIRIGA USTOZ

Oilaviy sulolalar hamisha an'analarni saqlab qolish va davom ettirish, tanlagan kasbi va hayot yo'liga hurmat bilan munosabatda bo'lish namunasi hisoblangan. Ichki ishlar organlarida ham sulolalar kam emas.

Bugungi hikoyamiz Soliyevlar sulolasi haqida.

Umidjon Soliyev uzoq yillar Andijon viloyati ichki ishlar organlari navbatchilik qismlarida xizmat qilib, viloyat IIB Situatsion markazi navbatchilik qismi boshlig'i lavozimidan podpolkovnik unvoni bilan pensiyaga chiqdi. Uning ukasi Ulug'bek tergov xizmatida faoliyat olib borgan. U ham podpolkovnik unvonigacha xizmat qilgan. So'nggi paytlarda Paxtaobod tumani IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi boshlig'i lavozimida ishlagan. Nodirbek katta akalari izidan bordi. Hozirda u Andijon viloyati IIB Probatsiya boshqarmasi inspektori, mayor.

Kamoliddin Soliyev 2020-yildan oilaviy an'analarni davom ettirib, amakilari izidan borishga qaror qildi. Dastlab tergov izolyatorida nazoratchi sifatida xizmat olib bordi, 2022-yildan esa Andijon viloyati IIB Tashkiliy boshqarmasi Tezkor boshqaruv markazi «102» xizmati kichik

mutaxassisi lavozimida faoliyat yuritmoqda. Unga ustoz – podpolkovnik Umidjon Soliyev o'zining hayot va xizmat tajribasini beminnat o'rgatdi. Bugungi kunda safdor Kamoliddin Soliyev shogirdlari – safdorlar Shuhrat Mutalipov va Gulshona Abdukurimovalarga ustozlik qilmoqda.

– Faoliyatimiz mashaqqatli va mas'uliyatli, – deydi safdor K. Soliyev. – Har smenada fuqarolardan 180 tadan 200 tagacha qo'ng'iroq kelib tushadi. Har bir murojaatni ro'yxatga olish va mas'ul navbatchi ofitserga yetkazish zarur, u esa osoyishtalik posbonlarini manzil bo'yicha yo'naltiradi.

Kamoliddinning orzusi IIV Akademiyasining sirtqi bo'limiga o'qishga kirib, kelgusida ofitser bo'lish.

**Boris KLEYMAN,
o'z muxbirimiz.**

Andijon viloyati.



РЕСПУБЛИКА КАРАКАЛПАКСТАН

ПРОГУЛКА ПОСЛЕ СВАДЬБЫ

Свадьба, состоявшаяся в Элликкалинском районе, к всеобщему удовольствию удалась на славу. На следующий день Т. А., в числе изрядно повеселившихся гостей, принял на грудь, чтобы опохмелиться. И тут его потянуло на подвиги.

Игнорируя возражения друзей, он сел за руль «Нексии» и предложил покатать их по городу. Но прогулка долго не продлилась. Инспектор ДПС остановил гуляк и положил конец опасной выходке.

По факту управления автомашиной в нетрезвом состоянии инспектор дорожно-патрульной службы отряда ДПС 2-й региональной территории МВД Республики Каракалпакстан рядовой Камил Авазатов оформил протокол задержания. Средство передвижения было помещено на временную штрафную стоянку.

Узнав о случившемся сын водителя, З. А., предложил инспектору взятку, прося «уладить» дело. Рядовой Авазатов разъяснил, что дача, равно как и получение взятки, преследуется в уголовном порядке. Но тот не унимался и на следующий день.

На основании рапорта инспектора ДПС в сотрудничестве с соответствующими службами З. А. был задержан при попытке дачи взятки.

В отношении З. А. было возбуждено уголовное дело, рассмотрев которое суд вынес справедливый приговор. А рядовой К. Авазатов за бескорыстие и преданность долгу удостоился благодарности министерства.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.



Рядовой Камил Авазатов родился в 1988 году в Элликкалинском районе.

Деятельность в органах внутренних дел начал в 2009 году рядовым Службы охраны при ОВД Кунградского района. Позже служил в Турткульском и Элликкалинском районах. В 2019 году переведен в УБДД МВД Республики Каракалпакстан.

В настоящее время является инспектором дорожно-патрульной службы отряда ДПС 2-й региональной территории МВД Республики Каракалпакстан. Одновременно учится на втором курсе заочного отделения Ташкентского государственного транспортного университета.

Вместе с супругой Хуршидой воспитывает четверых детей.

ГОРДОСТЬ ЗА СЫНА

МЕЧТА ОБ ОКСФОРДЕ



Мечта – великая сила. Она воодушевляет и мобилизует человека, помогает преодолевать трудности на пути достижения поставленной цели.

Эти мысли возникли вновь, когда в воскресенье наблюдал за сыном Лазизбеком, который увлеченно сидел с очередной книгой в руках.

Он уже решил стать сотрудником органов внутренних дел. Конечно, сказала на его выборе и моя профессия. Хотя сын судит поверхностно, не ведая о непростых буднях нашей службы, не пытаюсь его отговорить. Скорее наоборот – создал условия, чтобы он углубленно занимался историей, правоведением, английским языком, тхэквондо. Результат не замедлил сказаться. В минувшем году Лазизбек поступил в Джизакский академический лицей МВД. Учится на отлично. Недавно получил сертификат В-1 по английскому языку.

В будущем сын намерен учиться за рубежом, заняться научной работой в сфере прав человека. Приложу все силы, чтобы он сумел воплотить свою мечту. Надеюсь, что через несколько лет в списках студентов Оксфордского университета появится и имя Лазизбека Эгамназарова.

Несмотря на занятость, всегда нахожу время заниматься детьми. Горд тем, что в успехе сына есть и мой вклад.

Жасур МАМАРАЖАБОВ,
подполковник.

Джизакская область.



BAXT – OILANING NAQSHI


Baxtli oila bo'lib yashash har bir insonning orzusi. Lekin birgina xohish-istakning o'zi bilan bunga erishib bo'lmaydi. Hayotning past-u balandi, o'nqir-cho'nqir yo'llarida inson boshiga turli sinovlar tushishi mumkin. Ajralishlar, farzandlarning ota yoki ona mehridan mosuvo bo'lib o'sishi nafaqat bolalar kelajagi, balki jamiyat rivoji uchun ham katta yo'qotishdir. Afsuski, buni hamma ham his qila olmaydi.

–Xizmat faoliyatim davomida ko'plab oilalarni yarashtirishga erishgan bo'lsam, bu osonlikcha kechgani yo'q, – deydi Kosonsoy tumani IIB JXX xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, mayor Umida Abbosova. – Ayniqsa, oilada turmush o'rtog'i va uning yaqinlari tomonidan tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ayollarning taqdiri chigallashib ketayotgani achinarlidir.

Lavhamiz qahramoni 2014-yilda faoliyatini tergovchilikdan boshlagan. 2022-yilda hozirgi

bir nafariga shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni qayta tiklashda amaliy yordam ko'rsatildi. Xususan, «Qorasuv» mahallasida yashovchi Mohichehra Qodirovaga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishga ko'maklashildi. Jazoni ijro etish muassasasidan qaytgan 3 nafar xotin-qizga amaliy yordam ko'rsatilib, bandligi ta'minlandi.

Mayor U. Abbosova nafaqat jamiyatda o'z o'rnini topgan, balki oilada ham baxtli ona, uddaburon kelin, sevimli rafiqqa, desak, mubolag'a emas.



lavozimiga ishga o'tdi. U g'ayrati, shijoati, muammoni teran tahlil etib, to'g'ri qaror qabul qila olish qobiliyati bilan zimmasidagi mas'uliyatli vazifalarni sidqidildan bajarib kelmoqda.

Yil boshidan buyon tumanda 27 nafar tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizga himoya orderi berilib, 22 nafar ajrim yoqasidagi oila yarashtirildi. Bundan tashqari, tumanda «Ayollar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlarning muammolari hamkor idora va tashkilotlar bilan hal etib kelinmoqda. Profilaktik hisobda turgan 30 nafar xotin-qizdan 5 nafarining bandligi ta'minlandi. 3 nafariga moddiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishga ko'maklashildi,

U mahallasidagi namunali oilaga kelin bo'lib tushgan. Oiladagi sog'lom muhit tufayli hamma bir-biriga ko'makdosh. Katta qaynona Mahmudaxon momo Umida va Azizjonning ikki farzandini maktab va bog'chaga borib kelgandan so'ng darslarini bajarishini o'zi nazorat qiladi. Turmush o'rtog'i Azizjon Fayzullayev Namangan muhandislik texnologiya institutida psixolog bo'lib ishlaydi.

Bir so'z bilan aytganda, mayor Umida Abbosovaning mas'uliyatli ishidagi muvaffaqiyatli natijalarida oilasidagilarning ham hissasi bor.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



Payariq tumani «Ilg'or» mahallasi profilaktika inspektori, katta leytenant Nurali Mirzayev 2020-yilda Buxoro davlat universitetini tamomlagandan so'ng ilk xizmatini aholisi zich ushbu mahallada boshlagan. Lavhamiz qahramonining uch yillik xizmati davomida bu hududda birorta ham jinoyat sodir etilmagani e'tiborga molik.

– Yaqinda hokim yordamchisi bilan birgalikda Rossiyadan qaytib kelgan olti nafar migrantning har biriga 33 sotixdan yer topshirdik, – deydi profilaktika inspektori. – Yigitlar dalaga loviya ekishga qaror qilishdi. O'z ishi bilan shug'ullanish yoki biznes boshlash niyatida bo'lganlarga motokultivator sotib olish va imtiyozli kreditlar olishda ham yordam ko'rsatilmoqda. Umid qilamizki, bu ko'mak yoshlarga oilasini tark etmaslik, o'z yurtida ishlab pul topish imkonini beradi.

Jinoyatchilikni qanday bartaraf etgani haqida so'raganimizda, inspektor «Hushyor fuqarolar profilaktika inspektorining eng yaxshi yordamchilaridir. Mahalliy aholi hamma narsani ko'radi, eshitadi va sezadi. Qo'shnilari haqida hamma ma'lumotga ega. Ular o'z ko'chalarida yurgan begona avtomobilning rangi va hatto davlat raqamini osongina eslab qolib, bizning ishimizda yordam berishadi. Va biror joyda janjal kelib chiqsa, shu zahotiyog' oghlantirishadi.

Lekin hududda ma'muriy huquqbuzarliklar uchrab turadi. Amaliyot ko'rsatishicha, aksariyat huquqbuzarliklar mast holatda sodir etiladi. Bu oilaviy nizolarga ham tegishli. Ko'pincha ishlamaydigan fuqarolarni o'g'irlik va bezorilik uchun qo'lga olamiz. Huquqbuzarlar bilan har doim gaplashishga va ularga xatti-harakatlarining ehtimoliy oqibatlarini tushuntirishga harakat qilamiz. Natija yomon emas. Odamlar so'zimizni tinglaydi, mulohaza qiladi. Qishloq odamlari bir-birini taniydigan joy ekanini ham hisobga olishimiz kerak. Hech kim qishloqdoshlari orasida uyalib qolishni istamaydi», deya javob berdi.

Zamira BOLTAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

ПРОЕКТЫ В ДЕЙСТВИИ

ЗДЕСЬ БУДЕТ ГОРОД-САД!

В июне 2021 года Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев запустил строительство «Нового Андижана» в Андижанской области. Данный проект должен решить жилищные вопросы в областном центре.

В этом году в городе планируют построить 56 многоэтажных жилых домов на 1 608 квартир, школу на 1 680 мест, детский сад на 420 мест, поликлинику.

На данный момент строители уже возвели 70 многоэтажных домов на 3 310 квартир, поликлинику, трикотажное предприятие, ипотечный центр, более трех тысяч объектов торговли и обслуживания.

По инициативе личного состава УВД Андижан-

ской области было принято решение озеленить прилегающую к новым домам территорию. В рамках общенациональной экологической программы «Яшил макон» за один день было высажено около 10 тысяч саженцев фруктовых деревьев, сосны, ели, декоративных растений.

Стоит отметить, что многие сотрудники уже стали обладателями новых благоустроенных квартир в «Новом Анд-

жане». В ближайшие годы к новому городу будет проложена линия наземного метро.

– Здесь будут жить сотрудники со своими семьями, – говорит заместитель начальника УВД Андижанской области подполковник Исомиддин



Исманов. – Дети смогут играть в тенистых рощах, среди раскидистых

деревьев. Как сказал глава нашего государства – «Посадить дерево и уха-

живать за ним – ценность, оставленная нашими предками». Вот и мы, люди в погонах, надеемся, что проделанный труд по высадке деревьев внесет существенный вклад в окружающую нас среду. А ведь еще совсем недавно здесь ничего не было. Вот что значит сила человека, способного обратить пустыри в город-сад!

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.

Андижанская область.

БУХАРСКАЯ ОБЛАСТЬ

СЛУЖИТЬ С ЧЕСТЬЮ

Житель кишлака Росгир обратился в дежурную часть Вабкентского РОВД с заявлением о краже из его загона трех голов мелкого рогатого скота. По данному происшествию была создана оперативно-следственная группа, в состав которой включили старшего оперуполномоченного группы по борьбе с терроризмом службы оперативного розыска ОВД Вабкентского района майора Азамата Гадоева.

Майор вместе с инспектором профилактики обошли всех подозрительных лиц, проживающих в кишлаке, в том числе ранее судимых, состоящих на учете. Еще раз осмотрев место происшествия, А. Гадоев предположил, что злоумышленников было двое. Об этом свидетельствовали следы животных, которых погрузили в автомашину, поджидавшую рядом. Необходимо было установить свидетелей, видевших незнакомое транспортное средство. Один из аксакалов сообщил, что еще до зари выходил на улицу и заметил «Нексию» желтого цвета, двигавшуюся со средней скоростью. Были проверены записи

видеокамер, установленных на территории района.

Действительно, эту машину зафиксировала одна из камер. В беседе с майором Гадоевым владелец «Нексии» заявил, что автомашину у него арендует некто А. С. из Гиждуванского района. Таким образом, удалось задержать скотокрадов А. С. и М. Ф. Оказалось, что оба поделщика уже были судимы.

– В ходе дознания установлено, что за преступниками числилось около десяти краж в Шафирканском и Вабкентском районах. Живность они реализовывали не на базаре, а продавали людям, занимающимся откормом животных на дому,

владельцам столовых в виде мяса, – говорит майор А. Гадоев.

Азамат Гадоев после окончания Бухарского государственного университета поступил на Высшие курсы по подготовке сержантского состава Академии МВД. Его брат, Азимжон Гадоев, также служит в дежурной части ОВД №3 Гиждуванского РОВД. Майор Гадоев в органах внутренних дел 14 лет.

Каждый из нас, начиная какое-то важное дело, нуждается в советах более опытных людей. Адаптироваться к службе, познать ее тонкости герою нашего очерка помогли наставники. Он многим обязан брату – старшему сержанту Азимжону Гадоеву, подполковнику Самаду Буранову, подполковнику в отставке Алишеру Фозилу. Все они помогли стать опытным сотрудником.

В настоящее время майор А. Гадоев и сам передает свои знания молодому поколению.



Его учениками являются капитан Бобомурод Болтаев и старший лейтенант Элдор Махмудов. Он помогает им развивать свои навыки, принимать грамотные решения.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.



ЯҚИН ТАРИХ САҲИФАЛАРИДА

БИР СЎЗЛИ ИНСОН ЭДИ

Даурхан Мансуров 1944 йил 18 май куни Конимех туманида таваллуд топган. Отаси чўпон бўлиб, фарзандларининг ўқимишли бўлиши учун ҳаракат қилди. У 8 фарзандни вояга етказди. Улар орасида Даурхан учинчи фарзанд бўлиб, ўта жиддий ва қатъиятлилиги билан ажралиб турарди.

У ҳарбий хизматдан сўнг милиция ходими бўлишга қарор қилди. 1974 йилда ИИБ Олий милиция мактабини тамомлаган қахрамонимиз Навоий вилояти Кармана тумани ИИБ Тергов бўлимида ўз фаолиятини бошлади. Ҳалоллиги ва тиришқоқлиги туфайли жамоада ҳурмат-эътибор қозонди. Ўзбек, қозок, рус тилларида бемалол сўзлаша олиши тергов жараёнларида унга жуда қўл келди. Шу сабабли бошқа ҳамкасблари Даурханга доим ҳавас билан қарашарди.

Тўрт йилдан сўнг у ўзи туғилиб ўсган Конимех тумани ИИБ бошлиғининг биринчи ўринбосари этиб тайинланди. Бундан, айниқса, оила аъзолари жуда хурсанд бўлишди. Чунки энди у оиласи бағридан хизматга қатнаш, яқинлари билан кўпроқ кўришиш имкониятига эга бўлганди.

Аммо хурсандчилик узоққа чўзилмади. 1983 йил охирида бошланган «пахта иши» ғавғолари уни ҳам ўз гирдобига тортди. Даурхан Мансуров 1985 йилда тергов ҳаракатлари баҳонасида гумон



қилинувчи сифатида 6 ой давомида ҳибсхонада сақланди. Ҳар куни уни бир хил саволлар бериб қийнашар, то йўқ айбини бўйнига олмагунча қўймасликларини айтиб, дўқ-пўписа қилишарди. Бироқ унга қўйилган айбларнинг ҳеч бири ўз тасдиғини топмади. Шундан сўнг гдлянчилар 1986 йилда хизматда қолдиришга номуносиб ҳатти-ҳаракатлар содир этган деган уйдирма айб билан ички ишлар органларидан озод этишган.

– Мен ўша пайтлар 7 ёшда эдим. Отам «пахта иши» бўйича тергов қилиниб, 6 ой қамокда ётган. Онам фақат йиғлар эди. Отамни суд залига олиб киришаётганида бир марта кўрганмиз, холос. Ўшанда жуда ҳам озиб кетган эдилар. Отам жуда талабчан, қатъиятли ва бир сўзли инсон эдилар. Лекин бизга ҳеч қачон қаттиқ гапирмаганлар. Ёшим улғайгандан сўнг отамдан нега судланганлиги ҳақида жуда кўп

бора сўрадим. Аммо ҳар гал «Қўй, ўша машъум кунларни эслатма» дердилар. Бошларидан ўтказган қийинчиликларни ҳеч биримизга айтмас эдилар, – дейди унинг ўғли Фарҳод Мансуров.

Ички ишлар органлари сафидан ноҳақ бўшатилиши унинг руҳиятига қаттиқ таъсир қилди. Шундан кейин на еган-ичганида, на юриш-туришида ҳаловати бўлди. Оила аъзолари ундан қаттиқ хавотир ола бошлашди. Ҳар қанча далда беришмасин, дардини ичига ютиб, оғир ўй-хаёллар суришда давом этаверди. Шу зайлда ўтган 4 йил унга гўёки 40 йилдек туюлди.

– Бир кун отам ўз ҳақ-ҳуқуқларини талаб қилиш, адолатни қарор топтириш учун яна курашишга қарор қилганликларини айтиб қолдилар. Ҳаммамиз ич-ичимиздан унга муваффақият тиладик. Чунки бу сафар ҳам ютқизсалар, яна бир марта умидсизликка тушиш отам

учун жудаям оғир бўлишини ҳаммамиз ҳис қилиб турардик, – дейди унинг қизи Нурия Мансурова.

Майор Д. Мансуровнинг бу галги уринишлари муваффақиятли яқун топди. Ниҳоят 1990 йил 3 март куни Ички ишлар вазирининг буйруғига асосан ички ишлар органлари сафига қайта тикланди. Шундан сўнг яна 6 йил ўз касбига садоқат кўрсатиб, фидойилик билан хизмат қилди. У 1996 йили иззат-ҳурмат билан пенсияга кузатилди.

Пенсияга чиққанидан кейин ҳам уйда оёқ узатиб ўтирмади. 2000 йилга қадар солиқ соҳасида мутахассис ҳуқуқшунос сифатида ишлаб, кўплаб фуқароларга йўл-йўриқ кўрсатди, маслаҳатлар берди. Унга турмуш ўртоғи Кибра Жалгасова билан кексалик гаштини суриб, фарзандлар ва набиралар ардоғида умргузаронлик қилиш бахти оз бўлса-да насиб этди. Барча адолатсизликларни метин иродаси билан енгиб ўтган бу инсон 2013 йили ўзи туғилган санада Яратганга омонатини топширди.

Бугунги кунда фарзандлари турли соҳаларда ҳалол меҳнат қилиб, отасига раҳмат олиб келишмоқда. Жумладан катта ўғли Фарҳод Мансуров Миллий гвардиянинг Навоий вилояти бошқармаси Конимех тумани кўриқлаш бўлими сафдор ходими. Неваралари ҳам бобосининг ёрқин хотирасини ёдда тутиб улғайишмоқда.

Маҳлиё ХОЛОВА,
ўз мухбиримиз.

Навоий вилояти.

ҚИЛНИ ҚИРҚ ЁРИБ



ИЗЛАР ЖИНОЯТНИ ФОШ ЭТАДИ

Бекобод тумани ИИБ эксперт-криминалистика гуруҳи ходимлари жорий йилнинг ўтган даври мобайнида 46 маротаба воқеа жойини кўздан кечириб, ашёвий далиллар олишди, 185 маротаба қидирув ва тергов ҳаракатларида қатнашишди.

Шу билан бирга, гумондор, жабрланувчи, муқаддам судланган, профилактик ҳисобда турган ва жиноят қилишга мойил бўлган шахслардан олинган 2680 та қўл-бармоқ изи дактокарталари вилоят ИИББ ЭКМ АДТТ базасига киритиш учун жўнатилди. Кимёвий, дактилоскопия, баллистика, трасология, ҳужжатларнинг техник-криминалистик ва совуқ қурол экспертизаси йўналишларида жами 95 та экспертиза хулосаси берилди.

– Бошқа соҳавий хизматлар билан биргаликда доимий равишда ўқув машғулоти ўтказиб келинмоқда, – дейди туман ИИБ ЭКГ катта эксперти, подполковник Собиржон Низамутдинов. – Бу касбий билим ва кўникмаларимизни оширишда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Эксперт-криминалистика гуруҳида «Устоз-шогирд» анъанаси асосида хизматни бошлаган ёш ходимларга тажрибали ходимлар мураббий этиб бириктириляпти. Мазкур анъана ёш ходимлар касб сирларини мукамал эгаллашига хизмат қилаётир.

Михли САФАРОВ,
ўз мухбиримиз.

Тошкент вилояти.

2024-YIL – YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI

ORZULARGA QANOT BO‘LIB

Xabaringiz bor, huquq-tartibot va mudofaa organlariga yoshlar otaliqqa birlashtirilgan. Mazkur ezgu tashabbus bugun keng quloq yoyib, joylarda mas’ul rahbarlarning otaliqqa olingan yoshlar bilan uchrashuvlari tashkil etilmoqda.



Farg‘ona viloyati IIB boshlig‘i, general-mayor Azizbek Ikramov ham Farg‘ona shahridagi Al-Farg‘oniy mahallasida bir guruh yoshlar bilan uchrashuv o‘tkazib, ularning fikr-mulohazalariga quloq tutdi.

Kelajagimiz egalari bilan samimiy suhbatlashgan general ko‘zidan o‘t chaqnaib turgan yigit-qizlarning orzu-intilishlari, maqsadlari, rejaları bilan qiziqdi. Ularga o‘zining zarur maslahat va tavsiyalarini berdi.

Samimiy muloqot ruhi-da kechgan uchrashuvda viloyatda yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga ham to‘xtalib o‘tildi. Ularning kelib chiqish sabablarini bartaraf etish bo‘yicha aniq takliflar o‘rtaga tashlandi.

– Bugungi tadbir kelgusida ko‘zlab yurgan maqsadlarim uchun muhim qarorni qabul qilishimga turtki bo‘ldi, – deydi uchrashuv qatnashchisi Shohjahon Qurbonov. – Chunki unda shaxsiy hayotimda asqatadigan qimmatli maslahatlarini oldim. Endilikda yaxshi o‘qib, sport bilan shug‘ullanib, ichki ishlar organlari



safiga xizmatga kirishga harakat qilaman.

Bu kabi uchrashuvlar ertamiz egalarning huquqiy savodxonligini yanada

yuksaltirib, ularning orzu va intilishlariga qanot beradi.

Abduvosit SIDIQOV,
o‘z muxbirimiz.

Farg‘ona viloyati.

TO‘YXAT O‘RNIDA

ENG YUKSAK BAHO

Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, Yangiariq tumani IIBda uchastka noziri bo‘lib xizmat qilgan Karim ota xonadonida 2 qizdan keyin tug‘ilgan yagona o‘g‘il farzand yoshligidan kitobga katta mehr qo‘ygan edi. Maktabni oltin medalga bitirgan yosh Bahodirning kelajakda o‘qimishli, el-yurt koriga foydasi tegadigan inson bo‘lishini otasi juda xohlar edi. Ammo o‘lim haq ekan, Bahodir otasidan juda yosh, 12 yoshida ajralib qoldi. 3 farzandni tarbiyalash uchun onasi Zulayho aya kuyib-pishdi, otasi yo‘qligi bolalariga bildirmadi. Tirishqoq, epchil, bilimga chanqoq Bahodir Rahimov Xorazm davlat pedagogika institutini ham imtiyozli bitirib, 1990–2010-yillar davomida Xorazm viloyati IIB ichki ishlar organlarida samarali xizmat qildi. Asosiy xizmat faoliyatini kadrlar xizmatida olib borgan Bahodir Karimovich bir necha o‘nlab fidoyi, kasbiga sodiq shogirdlarga o‘zi ham ustozlik qildi.

Bahodir Rahimov kadrlar bilan ishlash xizmatining o‘ziga xos uslublarini ish faoliyatida me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga tayangan holda yanada takomillashtirishga harakat qilib, xodimlarning ma‘naviyatini, siyosiy-huquqiy bilimini oshirish borasida ko‘pgina ibratli ishlarni amalga oshirgan fidoyi rahbarlardan biridir.

O‘zining tirishqoqligi, izlanuvchanligi, tashabbuskorligi bilan hamkasblariga o‘rnak bo‘layotgan bu yigit viloyat IIB Shaxsiy tarkib bilan ishlash xizmati katta inspektoridan viloyat IIB boshlig‘ining o‘rinbosari – Shaxsiy tarkib bilan ishlash xizmati boshlig‘i lavozimigacha bo‘lgan mas’uliyatli yo‘lni bosib o‘tdi.

Albatta, yuragida o‘ti bor inson tinch o‘tirolmaydi. U sohaga yangiliklarni olib kirishga, ilg‘or tashabbuslarni ilgari surishga intiladi. O‘zgarishlar qilishni, muvaffaqiyatlarga erishishni istaydi. Bahodir ham shunday yo‘l tutdi. Ichki ishlar organlari tizimiga eng

munosib nomzodlarni tanlab olish bilan birga, ularning kasbiy malakasini, bilim va mahoratini oshirishga alohida e‘tibor qaratdi. Bu inson zimmasiga yuklatilgan vazifalarni chuqurroq o‘rganishga intildi, tinib-tinchimadi, doimo izlanishda bo‘ldi. Bunda unga ustozlari polkovniklar Shavkat Ibragimov, Otanazar Yoqubov, podpolkovnik Shavkat Otajonovlar yaqindan yordam berishdi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishdi.

– Bu fidoyi inson yurtimizda tinchlik-osoyishtalikni ta‘minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish yo‘lida uzoq yillar samarali xizmat qildi. Podpolkovnik Bahodir Rahimov ham ota kasbini davom ettirib, ichki ishlar sohasining tajribali rahbarlaridan biri sifatida hurmat-e‘tibor qozondi, – deydi viloyat IIB boshlig‘ining maslahatchisi, iste‘fodagi polkovnik Rustam Rahimov.

Faxriylarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish, qutlug‘ sanalarini tantanali ravishda nishonlash, sog‘lig‘ini muhofaza qilish borasidagi xayriy ishlari ham ko‘pchilikning e‘tirofiga sazovor bo‘ldi.

U xodimlar orasidan eng iqtidorli, qobiliyatli yoshlarni tanlab olib, ularni qo‘llab-quvvatladi. Natijada viloyat ichki ishlar organlari xodimlari orasidan sport, musiqa, rassomlik, badiiy ijod bilan shug‘ullanadigan talantli yoshlar yetishib chiqdi. Sportchilar Yusupboy Safoyev, Elbek Bog‘bekov, Hamid Ro‘zmetov, Dilmurod Qurbonboyev, Madamin Ro‘zmetov, Jo‘rabek Karimov, Azimboy Ibragimov, shoirlar Bekmurod Usmonov, Erkin Ro‘ziboyev, Qutlimurod Solayev, musiqa-chilar Maqsud Jumaniyozov, Tohir Jumaniyozov, Jamol Madrahimov, Baxtiyor Rahmonov, Mahmud Otajonov, Ollabergan Ollaberganovlarni hamon ko‘pchilik faxr bilan tilga olishadi. Boshqarmada iste‘dodli yoshlardan iborat bo‘lgan orkestrning tashkil etilishi esa vohada o‘ziga xos muhim yangilik bo‘ldi.

– Ichki ishlar organlarida o‘tkaziladigan tadbirlarda orkestrning o‘ziga xos muhim o‘rni bor, – deydi iste‘fodagi polkovnik Ro‘ziboy Masharipov. – Bu hayotiy zaruratni o‘z vaqtida anglab yetgan tajribali rahbar, ustozim Bahodir Rahi-



mov viloyat IIB orkestrini tashkil etdi. Tadbirlarda yangragan musiqa sadolari xodimlar ruhiyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, ularning xizmat faoliyatidagi ishchanligini oshirdi. Shuningdek, bu orkestr jamoasi respublika tanlovlarida ham ishtirok etib, sovrindorlar safidan munosib joy oldi.

«Keksalik bekorchilik emas» shioriga amal qilgan lavhamiz qahramoni pensiyaga chiqqach, yurtimiz rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shish maqsadida mehnat faoliyatini davom ettirdi. Ayniqsa, uning «Infinbank»ning Xorazm viloyati filialidagi faoliyati, IIB Faxriylar kengashining maslahatchi-murabbiysi sifatidagi sa‘y-harakatlari viloyat hokimligi, Ichki ishlar boshqarmasi rahbariyati tomonidan munosib e‘tirof etilmoqda.

Oilada farzandlar tarbiyasiga, ularning komil inson bo‘lib voyaga yetishiga alohida e‘tibor qaratdi. Uning

to‘ng‘ich farzandi Shahlo o‘qituvchi, Dinara va Zilola bank tizimida ishlashadi. Kenja farzandi leytenant Boburbek Rahimov esa otabobosining kasbini davom ettirib, ayni kunda viloyat Ichki ishlar boshqarmasi Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar va kadrlar bilan ta‘minlash xizmati katta inspektori lavozimida xizmat qilmoqda.

Bugun 60 yoshni qarshilayotgan Bahodir Rahimovning hayot yo‘llariga nazar tashlar ekanmiz, uning umri xayri va ezgu ishlarga boy ekanligiga amin bo‘ldik. Bu fidoyilik, mehnatsevarlik, burchga bo‘lgan sadoqat, insonlar qalbiga yo‘l topa bilish mahorati uni el-yurtga tanitdi, xalqning hurmat-e‘tiboriga, e‘tirofiga sazovor qildi. Bu inson uchun eng yuksak baho emasmi?!

Xudoybergan JABBOROV,
o‘z muxbirimiz.
Xorazm viloyati.



SHAHRIXON OSOYISHTALIGI UCHUN

Shahrixon – Andijon viloyatining aholi eng zich joylashgan tumani. Bu yerda 350 mingdan ziyod aholi yashaydi. Profilaktika katta inspektori, mayor Furqatjon Aliyorov shahar markazida joylashgan «Buvaydo» mahallasida xizmat qiladi. E'tiborga molik jihati, joriy yil boshidan buyon unga biriktirilgan hududda birorta ham jinoyat sodir etilmadi.

– Mahalla aholisi 5 ming nafardan ortiq, ular asosan hunarmandchilik bilan shug'ullanadi, – deydi profilaktika katta inspektori, mayor F. Aliyorov. – Mahalla fuqarolar yig'ini raisi Ismoiljon Yunusaliyev, hokim yordamchisi Vohidjon Po'latov, yoshlar yetakchisi Ulug'bek O'ktamov, xotin-qizlar faoli Toshxon Haydarova bilan birgalikda, aholi muammolarini xonadonma-xonadon tarzda o'rganamiz, ularni joyida hal etishga harakat qilyapmiz.

– Joriy yil boshidan buyon tazyiq va zo'rvonlik jabrdiydalariga aylangan 83 nafar ayolga himoya orderi berildi, – deydi tuman IIB HPB xotin-qizlar masalari bo'yicha katta inspek-

pishirishni bilmas, uyni saranjom tutmas edi. U o'g'liga bu borada shikoyat qila boshladi... Sitamlarga dosh berolmagan ayol tuman IIBga yordam so'rab murojaat qildi. Hududiy profilaktika inspektori bilan birga ushbu oiladagi vaziyatni o'rgandik. Ayolga himoya orderi berildi. Qaynonasi va turmush o'rtog'i bilan tushuntirish ishlari olib borildi. Bugun bu oilada osoyishtalik hukm surmoqda.

Surayyo Mamatqulova faqat xizmat xonasida o'tirib ishlashni yoqtirmaydi. O'ziga biriktirilgan mahalladagi xotin-qizlarning muammolarini o'rganadi va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliy yordam berish uchun harakat qiladi.



Profilaktika katta inspektori, mayor Furqatjon Aliyorov tuman IIBda amaliyot o'tayotgan IIV Akademiyasi kursantlari bilan.

– Noma'lum shaxs Shahrixon shahridagi dehqon bozorida bir ayolning sumkasi va ichidagi uyali telefonini o'g'irlab ketadi. Ayol shu yaqin atrofda xizmat vazifasini o'tayotgan xodimlarimiz Abrorbek G'ani-

yeu va Dilbek Yusupovga murojaat qildi, – deydi patrol-post xizmatining 2-tumanlararo otryadi komandiri vaqtincha vazifasini bajaruvchi, safdor Nuriddin Pozilov. – Xodimlarimiz tashqi kuzatuv kameralaridagi qaydlarni

majburiyatlarini a'lo darajada bajarayotgan safdorlar Sardor Turg'unov, Murodil Orifov, Dilbek Yusupov, Mahmudjon Yusupov hamkasblariga o'rnak bo'lib kelmoqda.

Shahrixon tumani hududidan o'nlab kilometr masofada A-373 «Andijon – Toshkent» avtomobil yo'li o'tadi. Bu hududda transport harakati bir on ham to'xtamaydi. Viloyat IIB JXX YHXB YPX 3-safarbar otryadi katta inspektori, katta serjant Azizbek Mahmudov aynan shu murakkab hududda xizmat olib boradi. U ichki ishlar organlari xodimlari sulolasi vakili. Amakilari Qudratillo va Rahmatillo Kichikbekovlar butun umr yo'l harakati xavfsizligi sohasida xizmat qilgan. Uning o'zi esa tizimdagi xizmat faoliyatini 2011-yili Xonobod shahar IIB yo'l harakati xavfsizligi guruhi YPX katta inspektori lavozimidan boshlagan. Jalaquduq va Izboskan tumanlari YHX guruhlarida katta inspektori sifatida xizmat qilgan. Hozirda egallab turgan lavozimiga 2022-yilda tayinlangan. Bir paytning o'zida Andijon mashinasozlik institutining sirtqi bo'limida tahsil olmoqda.

Boris KLEYMAN,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

Muallif olgan suratlar.



Podpolkovnik Surayyo Mamatqulova.

tori Surayyo Mamatqulova. – Masalan, «Qashqar» mahallasida yashovchi Qosimovlar oilasida uch farzandning onasi Nargiza zo'rvonlikka uchradi. Tinch-totuv hayot kechirayotgan yoshlar munosabatiga qaynona aralashib, vaziyat salbiy tomonga o'zgardi. Qaynonaning nazdida kelin bolalarga yaxshi qaramas, ovqat

PPX 2-tumanlararo otryadi xodimlari, safdorlar Abrorbek G'aniyev va Dilbek Yusupov.



ko'rib chiqib, gumonlanuvchini aniqlashdi. Tez orada u qo'lga olindi. Guvohlar ishtirokida o'tkazilgan tintuv paytida o'g'irlangan uyali aloqa telefoni yigitning yonidan topildi.

Shahrixon shahri ko'chalarida faoliyat olib borayotgan patrol-post xizmatining piyoda naryad va ekipaj yo'nalishlari dehqon bozori hamda unga yondosh hududlardan o'tadi. Bunda o'z xizmat

TANQIDIY TAHLIL, QAT'IY TARTIB-INTIZOM VA SHAXSIY JAVOBGARLIK – BOSH MEZON

Ichki ishlar organlari xodimlarini xalqqa yanada yaqinlashtirish, xalq dardi va tashvishi bilan yashashga, xizmat qilishga qaratilgan ulkan islohotlar samarasi o'laroq, bugun fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini, qonun ustuvorligini munosib ta'minlash, xalq manfaatlariga xizmat qilish ularning asosiy shiori, kundalik xizmatini amalga oshirish dasturiga aylangan.

Yurtimizda tinch-osoyishta hayotni ta'minlash ulkan mas'uliyat, tog'dek metin iroda, ham ma'nau, ham jismonan barkamol bo'lishni talab etadi. Shu ma'noda, buyuk Alisher Navoiy bobomizning «Odamiy ersang, demagil odami, onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami», degan satrlarida qanchalik chuqur ma'no borligini, dunyoda insonlarning dard-u tashvishlarini o'ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir.

Bugungi globallashuv jarayoni har bir insondan, u davlat xizmatchisi yoki oddiy odam bo'ladimi, zamon talabiga javob berishi, bilim va malakasini uzluksiz oshirib borishini taqozo etmoqda. Huquq-tartibot idoralari, xususan, ichki ishlar organlari xodimlari uchun esa bu ikki karra muhim

keskin oshirish kerak. Bu borada zaruriy ishlar olib borilmoqda.

Soha xodimi ma'naviyati yuksakligi bobida ko'pchilikka namuna, ibrat bo'lishini zamon talab qilmoqda. Davr har birimizdan o'zimizni tinimsiz taftish qilish, o'z ustimizda muntazam ishlash, faoliyatimizni to'xtovsiz takomil-



sanaladi. Negaki, ular doim xalq orasida bo'ladi, turfa fe'l, turli kayfiyatdagi odamlar bilan muvoqot qiladi.

Davlatimiz rahbari boshchiligida ichki ishlar organlarida xodimlarni xalqqa yaqinlashtirish, el dardi va tashvishi bilan yashashga, xizmat qilishga qaratilgan tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayon, birinchi navbatda, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

Tizimda xizmat intizomi va qonuniylikni mustahkamlash borasida jamoatchilik ta'siridan samarali foydalanishga qaratilgan bir qator amaliy chora-tadbirlar o'z samarasini bermoqda. Bunday ishlarni kelgusida yanada takomillashtirish, xizmat intizomini buzishga moyil bo'lgan ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan choralar qo'llanilishida jamoatchilik ta'sirini

lashtirishni taqozo qilmoqda. Shu bois xodimlardan muomala madaniyatiga rioya etish talab qilinadi. Shu o'rinda xodimning ma'naviy qiyofasi ham muhim o'rin tutishini alohida ta'kidlash joiz. Chunki xodimning ma'naviyati yuksak bo'lsa, xalq orasida obro'-e'tibor qozonadi, mansab pog'onalaridan yuqori ko'tariladi.

Biroq «Guruch kurmaksiz bo'lmaydi» deganlaridek, soha xodimlari orasida nopok, shaxsiy manfaatini davlat manfaatidan ustun qo'yadigan, fuqarolar bilan qo'pol munosabatda bo'ladigan, Kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksiga rioya qilmaydiganlar ham yo'q emas.

Ichki ishlar organlari xodimi bo'lish, egniga xizmat libosini kiyish har kimga ham nisib qilavermaydi. Shu ma'noda xodim hech qachon davlat xizmatchisi ekanligini unutmasligi lozim. Xodimlar faoliyatining negizi esa adolat va halollikdir. Aynan adolat va halollik

tantanasi soha vakillarini sharaflaydi va obro'sini oshiradi.

Muomala madaniyati eng avvalo xodimlarning ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Xushmuomala xodim deganda, o'z kasbini ardoqlaydigan, vazifasini bekamu ko'st bajaradigan, ma'naviy yetuk, odobli, bilimli, tajribali, o'z taqdirini Vatan taqdiri bilan bog'lagan, mamlakat hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarning mazmun-mohiyati va maqsadini teran anglagan holda uning faol ishtirokchisi sifatida o'zini namoyon etadigan xodim tushuniladi. Ichki ishlar organlari xizmatiga qabul qilingan yosh xodimlardan ushbu ko'nikmalarni puxta o'zlashtirishlari talab etiladi.

Hozirgi davrda ichki ishlar organlarining xodimi kundalik hayotda insoniy munosabatlarning eng murakkab jarayonlariga kirib boradi. Xalq manfaatlari va taqdirlari bilan bog'liq bo'lgan o'tkir mojaroli vaziyatlarda hakamlik vazifasini ado etadi. Shuning uchun uning kasb madaniyati adolatparvarlik, halollik, mehribonlik kabi olijanob fazilatlarini o'z ichiga oladi. Xodimlarning asosiy vazifasi jamiyatga yot, huquqga zid axloqsizlik, noma'qulchilik kabi illatlarning yo'lini to'sish, insonlarning huquqlarini, qadr-qimmatini,

holatlari uchrab turibdi. Internetda osoyishtalik posbonlarini obro'sizlantirish, noxolis axborotlarni bo'rttirib ko'rsatish holatlari kuzatilyapti.

Ko'pgina hollarda qonun doirasida ish ko'rayotgan ichki ishlar organi xodimining ustidan kulish, unga o'z vazifasini ado etishiga to'sqinlik qilish, kuch ishlatish shular jumlasidandir. Noxolis axborot tarqatayotganlar nega xizmat vazifasini bajarish paytida tinchlik uchun, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash yo'lida jarohat olib, nogiron bo'lib qolgan yoki jon fido qilgan insonlar haqida gapirishni ep ko'rishmaydi? Achinarli tomoni, bunday holatlardan xodimning o'zi, yaqinlari, oila a'zolari moddiy va ma'naviy zarar ko'rishi mumkin. Ular ham bir oilaning boquvchisi, kimningdir farzandi, kimningdir otasi yoki aka-ukasi. Bu kabi holatlar ichki ishlar organlariga nisbatan salbiy fikrlar shakllantirish va tizimda halol ishlayotgan minglab xodimlar mehnatini puchga chiqarish yo'lidagi urinishlardir.

Darhaqiqat, hukm surayotgan tinchlik va xotirjamlikni qadrlash, uning shukronasini qilish har birimizning burchimiz. Shunday ekan, zimmamizdagi vazifalarni vijdonan bajarish, xizmat intizomi



or-nomusini, davlat va jamiyatning manfaatlarini himoya qilishdir.

Afsuski, keyingi paytlarda xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilish, ularni haqorat qilish, ularning xatti-harakatlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatish orqali shantaj qilish

va qonuniylikka qat'iy rioya qilish, faoliyatimizni tanqidiy tahlil asosida qayta ko'rib chiqishimiz davr talabidir. Zero, el-yurtga fidoyilik bilan xizmat qilish yaxshiliklarning gultoji hisoblanadi.

Azizjon FAYZIYEV,
podpolkovnik.



9 МАЙ — ХОТИРА ВА ҚАДРЛАШ КУНИ

ҚУРОЛ ВА ҚАЛАМ БИЛАН

Шароф Рашидов атоқли давлат арбоби бўлиш билан бирга, улкан сўз санъаткори, моҳир таржимон, инсон қалбининг зукко билимдони эди. Унинг ёшлик, баҳор, гўзаллик, эзгулик, Ватан меҳри тараннум этилган асарлари халқимиз қалбидан чуқур жой олган. Хусусан, «Кашмир қўшиғи», «Икки дил достони», «Дил амри» каби асарлари миллий адабиётимиз хазинасидан муносиб жой олган, қатор асарлари асосида бадиий фильмлар суратга олинган, спектакллар сахналаштирилган.



Маълумки, Иккинчи жаҳон уруши кўпчилик қатори ёш журналист ва шоир Шароф Рашидовни ҳам ўз гирдобига тортди. У қонли уруш бошланиши билан биринчилар сафида фронтга отланиб, энг оловли нуқталарда жанг қилди. Фронтда кўрсатган мардлиги ва жасорати учун икки бор жанговар «Қизил юлдуз» ордени билан тақдирланди.

У қаттол ёвга қарши бир қўлида қурол, бир қўлида қалам билан курашди, шу йилларда уруш мавзусида ўнлаб ўтли шеърларини яратди.

Фашистлар Ватанимизга бостириб кирган биринчи кунийёқ «Тарихнинг қаҳри-ла қайрадим қилич» шеъри яратилади:

*Ҳазаб қиличида элим қаҳри бор,
Ҳазаб қиличининг кескин заҳри бор,
Юракда қасоснинг тошқин наҳри бор,
Қиличим, қаҳримсан, ёвга бўлгин ёв!*

Ҳар бир сатр орқали, ҳар бир мисра орқали душманга бўлган кучли нафрат, ҳар кунни ўзбек хонадонларидан урушга жўнатилаётган навқирон йигитларга суянч бўлиш, жигарбандини урушга кузатаётган онаизорларнинг дуолари, ғалабага катта ишонч «Қаҳрамон хотираси», «Жангчи», «Офарин», «Белград қизи», «Яшасин севги!» шеърлари ёзилишига туртки беради.

ЖАНГ ҚИЛ!

Фикрим сенда, жанг қил, мадорим!
Қайраб олган яроғинг бўлай,
Қон ичида ўртоғинг бўлай,
Жанг қил, менинг мадорим, орим!

Жанг қил, ёвга омон бермагин,
Жанг қил, бахти – баҳорим учун;
Ёруғ машъал диёрим учун,
Жанг қил, менинг меҳрибон ёрим!

Жанг қил, бахтим пайҳон бўлмасин,
Кўз ёшларим уммон бўлмасин.
Шодмон кўнгил ҳеч қон бўлмасин,
Жанг қил, менинг бахтим, баҳорим.

Истайманки, кундузнинг куни,
Туннинг сўнмас юлдузи бўлгин,
Адолатнинг сен кўзи бўлгин,
Жанг қил, менинг ҳаётим – борим.

Керак бўлса тез баён этгин,
Жанг ичида намоён бўлай,
Зафарингда мен аён бўлай,
Жанг қил, ёнган чироғим, ёрим!

1941 йил.

ОФАРИН

Кетди донғинг ўлка бўйлаб, жангда ўғлон, офарин,
Мардлигингдан ёв бошига ёғди тўфон, офарин.

Шамширинг бор қайралибдир ўч – адолат тошига,
Шиддатинг бор ёвга офат, этди пайҳон, офарин.

Кул қилиб кўкка совурмоқ ёвни олий фарз эрур,
Сен элим деб ёвни қирдинг, марду майдон, офарин.

Арғумоқ устида лочин – сен зафарнинг элчиси,
Майли жавлон айла жангда, тоза виждон, офарин.

Ол қасос, ўғлон, фанимдан барча кетган қон учун,
Сенга тикмиш эл кўзини, қайна вулқон, офарин.

1941 йил.

ЁШЛАР – КЕЛАЖАК БУНЁДКОРИ

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университетининг II босқич талабаси Мирзабек Элмуродов уяли алоқа воситасини бир дақиқага сўраган эркакка телефонини узатди ва ўзганинг суҳбатига қулоқ тутаётгандек кўринмаслик учун четланди. Эркак гаплашиб бўлгач, ўз йўлида давом этди.

Мазкур воқеадан бир неча дақиқа ўтар-ўтмас Жиззах вилояти ИИБ ходими Мирзабек билан боғланиб, ҳозиргина унинг телефонидан фойдаланган одам қидирувдаги шахс эканлиги, ички ишлар органи ходимлари етиб боргунга қадар уни кузатиши ке-

рганлари ходимларининг Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети талабаси билан телефон орқали боғланишига сабаб бўлганди.

Талабанинг журъати ҳар қанча таҳсинга лойиқ. У «Менга нима», дея қўл силташи, бепарқлик пардаси

ЖУРЪАТЛИ ТАЛАБА



раклигини тушунтирди. Мирзабек иккиланмасдан рози бўлди. Аммо бу пайтда эркак кўздан ғойиб бўлганди. Шу боис у нотаниш киши кетган кўча томон чопди. 200 метр юрганидан сўнг қидираётган одамани топди ва унинг ортидан кузатиб, ярим километрча юрди. Кўп ўтмай, ички ишлар органи ходимлари гумонланувчини қўлга олишди.

М. Элмуродов тутишга ёрдамлашган шахс Зомин туманининг «Небўса» маҳалласида яшовчи У.А. бўлиб, шу йилнинг 19 апрель куни Зарбдор туманининг «Оқбулоқ» маҳалласида истиқомат қилувчи Б.А.ни пичоқлаб, воқеа жойидан яширинганди. Ходимлар гумонланувчини тутишга қаратилган тезкор қидирув тадбирларини амалга оширишга киришдилар. Қотилликда гумон қилинаётган эркак лавҳамиз қаҳрамонининг телефонидан фойдаланган ҳолда турмуш ўртоғига қўнғироқ қилгани аниқланди. Бу эса жазолик ички ишлар

ортига беркиниши мумкин эди. Демокчи бўлганимиз, жиноят содир этган шахсни муайян муддат кузатиб бориш ҳамда уни қўлга олаётганларга ёрдам кўрсатишга ҳар кимнинг ҳам юраги дов беравермайди.

Қисқаси, жасур йигитни тақдирлашга қарор қилинди. Университет ўқитувчи ва талабалари иштирокида йиғилиш ўтказилиб, Қашқадарё вилояти Ғузор тумани «Апарди» маҳалла фуқаролар йиғинида яшовчи Мирзабек Элмуродовга эсдалик қўл соати ва 5 миллион сўм пул мукофоти, шунингдек, унинг ота-онасига ташаккурнома топширилди. Худди шундай, гумонланувчини қўлга олган Тошкент шаҳри Шайхонтоҳур тумани ИИОФМБ 5-сонли ИИБнинг 4 нафар ходими эсдалик совғалари билан рағбатлантирилди.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
ўз мухбиримиз.

Жиззах вилояти.

▶ УРОК ДУХОВНОСТИ И ПРОСВЕЩЕНИЯ

ГЛАВНЫЙ КРИТЕРИЙ – КРИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ, СТРОГАЯ ДИСЦИПЛИНА И ЛИЧНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ



В любом сообществе, какой бы период истории человечества ни рассматривали, имелись нормы поведения, определенные правила, регулирующие отношения между его членами. Позже они трансформировались в законы и нормативные акты, обязательные к применению. Неотъемлемым элементом выступает дисциплина.

Преобразования, осуществляемые в стране, преследуют интересы народа, обеспечение его спокойствия и мирного труда. Последовательно реализуются демократические реформы, формирование гражданского общества. Они способствуют выработке активной жизненной позиции, чувства сопричастности к историческим свершениям нынешнего этапа развития Нового Узбекистана. В то же время процессы глобализации обуславливают новые вызовы, для успешного преодоления которых **необходимы критический анализ, строгая дисциплина и личная ответственность.**

Чтобы соответствовать духу времени от каждого требуется непрерывное повышение знаний и совершенствование квалификации. Это вдвойне актуально для сотрудников органов внутренних дел, ибо они постоянно находятся среди народа, общаются с представителями разных слоев населения. Чтобы соответствовать занимаемой должности им нужно обладать высокими морально-этическими качествами.

Под руководством Президента страны реформируется система органов внутренних дел, направленная на приближение этой структуры к народу, **содействие решению проблем граждан, дальнейшее укрепление правопорядка.** Суть реформ заключается в полном обеспечении прав, свобод и интересов народа, обеспечение верховенства закона.

Сотрудник органов внутренних дел выступает в качестве поборника закона, прав граждан, в том числе охраняет жизнь и спокойствие людей. Поэтому важно при общении с гражданами следовать нормам поведения и морали.

Сегодня каждый сотрудник должен обладать глубокими знаниями, **иметь высокие профессиональные навыки, быть инициативным, образованным и культурным, отличаться кругозором и духовностью, глубоко осознавать суть и значение реформ, служить образцом честности, преданности долгу и Родине.** Это вовсе не высокопарные слова.

«Кодекс профессиональной культуры и служебной дисциплины сотрудников органов внутренних дел», утвержденный постановлением Президента, является основополагающим документом в их духовном совершенствовании, повышении авторитета среди общественности, усилении уважения и внимания к данной сфере.

Принятый кодекс призван воспитывать сотрудников духовно зрелыми, отстаивающими интересы народа, повышать чувство личной ответственности, побуждать к неукоснительному следованию нормам этики и морали, быть непримиримыми к коррупции.

В целях укрепления служебной дисциплины и законности эффективно используются меры общественного воздействия. Они приносят положительный результат. Поэтому принимаются меры по дальнейшему совершенствованию данного механизма.

Актуальное звучание обретает постоянный самоконтроль, критический анализ собственных поступков, уровня знаний. На их основе нужно неустанно работать над самосовершенствованием, ибо сотрудники органов внутренних дел всегда находятся среди людей, они работают у всех на виду. Даже в мелочах – будь то форма и состояние

одежды, образ поведения, манера обращения с гражданами.

Но встречаются и случайные люди, попавшие в органы внутренних дел, которые личные интересы ставят выше служебного долга. К примеру, гражданин обратился к сотруднику с проблемой. Он ждет конкретной правовой помощи, совета. Вместо этого сотрудник проявляет равнодушие, грубит или ждет материальное вознаграждение. Тем самым он дискредитирует не только себя, но и систему правоохраны.

Хотя органы внутренних дел с честью выполняют возложенные на них задачи, к сожалению, встречаются случаи воспрепятствования их работе, оскорблений, распространения в социальных сетях информации, порочащей честь и достоинство сотрудников. От такого страдают не только отдельные сотрудники, но также их семьи и близкие.

Каждый гражданин страны обязан ценить мир и спокойствие, содействовать укреплению правопорядка, проявлять нетерпимое отношение к нарушителям закона. Мы же приложим все силы и знания, чтобы с честью выполнять возложенные на нас задачи.

Соб. корр.



ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ

ОЛТИНГА ТЕНГ ҚИЙМАТЛАР

Гайратли кишилар доим хайрли ташаббусларга бош-қош бўлишади. Бундай одамлар фидойилиги билан ён-атрофидаги кишиларга, айниқса, ёшларга ўрнак кўрсатади. Ана шундай шижоатли фахрийларимиздан бири – истеъфодаги майор Абдуҳалим Абдуҳалилов.

Лавҳамиз қаҳрамони кўп йиллар давомида ички ишлар органларида турли масъулиятли вазифаларда, раҳбарлик лавозимларида хизмат қилган. Суриштирувчиликдан тортиб жиноят қидирув йўналишида, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси хизматида фаолият юритган.

Абдуҳалим Абдуҳалилов пенсияга чиққанидан кейин ҳам шижоатини йўқотмади. Ўзи яшаётган маҳалланинг жамоат ишларида ҳам, ички ишлар органларининг маънавий-маърифий тадбирларида ҳам фаоллик кўрсатди. Мана, 6 йилдирки, Термиз шаҳар ИИБ Фахрийлар кенгашининг раиси сифатида ёш авлодни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ишларига муносиб ҳисса қўшмоқда.

Унинг саъй-ҳаракати ҳамда кенгашнинг 9 нафар аъзоси кўмагида Миллий гвардия вилоят бошқармаси билан ҳамкорлик ўрнатилиб, шаҳар ички ишлар органлари ходимларининг 50–60 нафар фарзандлари «Чавандозлар мактаби» тўғрагига бепул қатнашмоқда. Худди шундай, Мудофаага кўмаклашувчи «Ватанпарвар» ташкилоти билан ўрнатилган яқин



ҳамкорлик натижасида сузиш, милтиқдан ўқотиш, биатлон каби тўғарақларда ҳам болалар шуғулланиши учун имконият яратилди.

Айниқса, Фахрийлар кенгаши ташаббуси билан турли хотира турнирлари, марафонларнинг уюштирилаётгани барчани мамнун қилмоқда. Санъат саройи ҳудудидаги боғда ташкил этилган «Соғломлаштириш йўлаги»-да Абдуҳалим Абдуҳалилов бошчилигидаги

фахрийлар, кексалар ҳар куни эрта тонгда бадантарбия машғулоти билан шуғулланиши эса янада кўпчиликнинг эътирофига сазовор бўлди. Дарвоқе, А.Абдуҳалиловнинг ўзи ҳам мусобақаларда фаол иштирок этиб келади ва бир неча маротаба ғолибликни қўлга киритган.

– Термиз шаҳрида 1405 нафар фахрий яшайди, – дейди истеъфодаги майор Абдуҳалим Абдуҳалилов. – Уларнинг 12 нафари Афғонистонда бўлиб ўтган жангларда, 2 нафари эса Чернобиль фожиаси оқибатларини бартараф этишда қатнашган. Яна 136 нафари боқувчисини йўқотган бўлса, 12 нафари бевоблиги туфайли ётиб қолган. Кенгаш аъзолари билан биргаликда мунтазам равишда уларнинг ҳолидан хабар оламиз, керак бўлса, моддий жиҳатдан қўллаб-қувватлаймиз. Уларнинг кўнгли тоғдек кўтарилади. Ахир, бу дунёда биздан фақат яхшилик қолади.

Уч қиз, икки ўғилни жамиятга фойда келтирадиган инсонлар сифатида улғайтирган лавҳамиз қаҳрамони бугунги кунда 15 нафар набира ва 4 нафар чевара билан бирга кексалик гаштини сурмоқда. Ишдан чиқиб, набираларнинг таҳсил олишию спорт билан шуғулланишига эътибор қаратади. Уларни доим фойдали машғулот билан банд бўлишга ундайди.

Феруза РАҲМОНҚУЛОВА,
ўз мухбиримиз.

Сурхондарё вилояти.

О'QUV MASHG'ULOTI

JANGOVAR SHAYLIK OSHIRILMOQDA

Xorazm viloyati hududida jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, sodir etilishi mumkin bo'lgan terrorchilik, qo'poruvchilik harakatlarining oldini olish, og'ir va o'ta og'ir turdagi jinoyatlar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bir qator profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunda viloyat hududidagi tashlandiq binolar, dala hovlilar, chegara hududlardagi aholi yashash punktlari ko'zdan kechirilib, profilaktik-tushuntirish ishlari olib borilyapti.

– Joriy yilning o'tgan davri mobaynida viloyat Ichki ishlar boshqarmasi va uning quyi tizimlari shaxsiy tarkibining jangovar shayligini oshirish, ularning favqulodda holatlarda

to'g'ri va aniq harakatlanishiga erishish, xizmat va jangovar shaylikka oid bilim hamda kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirish bo'yicha 32 marotaba qo'mondonlik-shtab



va maxsus-taktik o'quv mashg'ulotlari hamda jangovar shaylik tekshiruvlari o'tkazildi, – deydi viloyat IIB Harbiy safarbarlik bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Zafarbek Iskandarov.

Urganch va Xiva shaharlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari bilan hamkorlikda savdo va aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarida favqulodda holatlarda to'g'ri, aniq harakatlanish tartiblari bo'yicha o'quv-amaliy mashg'uloti o'tkazildi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari hamda tegishli tashkilotlar mutaxassislari bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan bunday tadbirlar xodimlarning jangovar shayligini oshirish, bilim va kasbiy ko'nikmasini mustahkamlash, eng muhimi, yurtimiz tinchligi, fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

USTOZ-SHOGIRD

AN'ANALAR BARDAVOM

Viloyat IIB Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadida xodimlarning ma'naviyatini yuksaltirish, jangovar va jismoniy tayyorgarligini oshirish yo'lida barcha imkoniyatlardan foydalanilmoqda. Xususan, otryad «Ustoz-shogird» an'anasi yaxshi yo'lga qo'yilgani ayni mudao bo'lyapti.

– «Ustoz ko'rmagan shogird – har maqomga yo'rg'alar» degan hikmat bejiz yaralmagan. Chunki ustoz ko'rmagan shogird o'sha sohaga oid tartib-qoidalarni, alohida yo'nalishni bilmaydi. Bu esa o'z xizmat faoliyati jarayonida bir qancha muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, – deydi otryad komandiri o'rinbosari, mayor Alisher Nazarov. – Jamoamizda tajribali murabbiylar anchagina. Ularning orasida guruh komandiri, katta serjant Ilhom Rustamovning o'rne alohida ajralib turadi.

Katta serjant Ilhom Rustamov 2007-yildan to hozirgi kunga qadar TVBSOda turli lavozimlarda faoliyat ko'rsatib kelyapti. Ayni paytda kichik serjant Azamat Po'latovga murabbiy etib tayinlangan. Azamatjon har doim ustozining nazoratida.

– Men ham uzoq yillik faoliyatim davomida ustozlarimga alohida mehr qo'yib, kam bo'lmadim, – deya Ilhom aka yangi ishga kirgan paytini xotirladi. – Yuridik texnikumni tugatib, o'zim tug'ilib o'sgan Romitan tumani «Yaxshi Navro'z» mahalla fuqarolar



yig'inida mahalla posbonlar sardori bo'lib ish boshladim. O'shanda mahalla profilaktika inspektori bo'lgan leytenant Akbar Bafoyevdan hujjat ishlarini olib borishni va aholi bilan muomala qilishni puxta o'rgandim. Ikki yildan so'ng Akbar akaning

tavsiyasi bilan ichki ishlar organlari xizmatiga o'tdim. Mana, shunga ham yigirma uch yil bo'lyapti.

Xavfli jinoyatchilarni qo'lga olishda ko'rsatgan jasorati va mardligi uchun «Sodiq xizmatlari uchun» medali bilan mukofotlangan kat-

ta serjant Ilhom Rustamov xizmat burchiga sadoqati, tartib-intizomga qat'iy rioya qilishi bilan boshqalarga ibrat bo'lmoqda.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

SOHAVIY XIZMATLARDA

TALABALAR BILAN BIRGA, BAQAMTI

Jizzax davlat pedagogika universitetida huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olishga mas'ul bo'lgan shahar IIB 2-sonli IIB HPB katta inspektori, mayor Temur Qo'ziyev davomatni tekshirish jarayonida jismoniy madaniyat fakulteti talabalaridan biri ikki kundan buyon darsda qatnashmayotganini bilgach, u bilan telefon orqali bog'lanishga urinib ko'rdi. Buning iloji bo'lmagach, yigit ijarada yashayotgan «Zargarlik» mahallasidagi xonadonga bordi. Keyin uning ota-onasi bilan suhbatlashdi.

Mazkur jarayonda V.R.ning ilm olish o'rniga, pul tikib o'ynaladigan «PUBG»ga mukkasidan ketgani, qarzdor bo'lib qolgach, onasining nomiga kredit rasmiylashtirishga urinib ko'rgani ma'lum bo'ldi. Mayor bu muammoni hal qilishni yigitni ibratli talabalar istiqomat qiladigan xonadonga ko'chirishdan boshladi. Qolaversa, V.R.ning iqtisodiy ahvolini inobatga olib, ijarada yashash to'lovlarini universitet hisobidan qoplanishi choralarini



ko'rdi. Tabiiyki, profilaktik muloqotlar o'tkazishni ham kanda qilmadi...

Mayor Temur Qo'ziyev shu kabi yo'llar bilan 20800 nafar talaba ta'lim oladigan oliy o'quv yurtida qonunbuzarliklarning oldini olish choralarini

ko'rmoqda. Yana shunisi aniqki, qonun himoyachisining asosiy e'tibori profilaktik ishlarga qaratilgan. Chunki, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish maqsadida ularning huquqiy bilimini oshirishga

qaratilgan davra suhbatlari, muloqotlar hamda «Zakovat», «Zukko kitobxon» kabi tadbirlar uyushtirilishiga bosh-qosh. Shuningdek, talabalar turar joyi va ijara uylaridagi yashash muhitini o'rganadi, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, axloqiy muhit, sanitariya-gigiyena masalalari ham diqqat markazida.

Shu o'rinda aytish kerak, pedagogika universiteti Jizzax shahrining «Jizzaxlik», Sharof Rashidov tumanining «So'loqli» va «Kuyovboshi» mahallalari, Zarbdor tumanining Bo'ston shaharchasida o'quv binolariga ega. Shu bois mayor Temur Qo'ziyev ushbu hududlarni qamrab olish choralarini ko'radi. Yana bir ma'lumot: 2023-yilning mos davri bilan qiyoslaganda, joriy yilning o'tgan oylarida universitet talabalari ishtirokida ro'y berayotgan huquqbuzarliklar 50 foizga qisqargan. Ko'rsatkichning yaxshilanib borayotganida lavhamiz qahramonining katta hissi bor, desak, xato bo'lmaydi.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



■ Ферганская область

ОЧЕРЕДНАЯ ВСТРЕЧА КОНСУЛЬТАТИВНОГО СОВЕТА

При Управлении внутренних дел Ферганской области действует консультативный совет «Уч авлод» («Три поколения»), созданный в целях воспитания молодых сотрудников в духе преданности выбранной профессии, любви к Родине. Своеобразный ферганский опыт заключается в том, что к начинающим специалистам прикрепляются в качестве наставников ветераны сферы.

должности зачислено 112, на сержантские – 14 сотрудников. В рядовой состав приняты 48 человек. За ними закреплены квалифицированные специалисты.

Из профессионально занимающихся спортом 30 молодых сотрудников 19 являются призерами и победителями республиканских, 7 – международных, 4 – мировых чемпионатов.

Выступившие на встрече ветераны поделились богатым опытом, дали ценные советы и рекомендации младшим коллегам.

В ответном слове представители младшего поколения поблагодарили выступивших за советы и наставления.

Абдувосит СИДИКОВ,
соб. корр.



Очередная встреча прошла в формате видеоконференции. В центральной студии присутствовали ветераны, молодые сотрудники и учащиеся академического лицея МВД. В региональных студиях собрались более ста ветеранов и молодых сотрудников.

На встрече было отмечено, что в органах внутренних дел Ферганской области трудятся 948 молодых сотрудников, что составляет 24 процента всего личного состава. В том числе 6 занимают руководящие должности, еще 30 человек включены в резерв кандидатов на руководящие должности. За минувший период на офицерские



MAS'ULIYATNI

HIS ETIB...

Chirchiq Toshkent viloyatidagi sanoat shaharlaridan biri hisoblanadi. Aholi soni 172 ming nafardan ortiqni tashkil qiladi. Shaharda 1 ta madaniyat saroyi, 5 ta oliy ta'lim muassasasi, 13 ta shifoxona, 25 ta maktab, 27 ta MTM, 9 ta kollej va litsey faoliyat yuritadi.

Ko'rib turganingizdek, statistik raqamlar anchayin salmoqli. Bu, albatta, shahar IIB xodimlari zimmasiga o'z xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli ado etishda katta mas'uliyat yuklaydi.



Navbatchilik qismida ishlayotgan xodimlar mas'uliyatni ikki karra ko'proq his qilishi xizmat samaradorligini yanada oshiradi.

Chirchiq shahar IIB Navbatchilik qismiga bir sutka davomida kelib tushadigan murojaatlar soni yuzdan oshadi. Shundan jinoyatchilikka oidlari 5-7 tani tashkil qilmoqda.



Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limida ham ishlar tizimli tashkil etilgan bo'lib, fuqarolardan belgilangan hujjatlar qabul qilib olingandan so'ng bir ish kuni mobaynida ID-kartalar rasmiylashtirib berilmoqda.

Ichki ishlar organlari xodimlarini yuksak vatanparvarlik va burchga sadoqat ruhida tarbiyalashda sohada boy amaliy tajriba to'plagan faxriylarning o'rni beqiyos.

– Hayotda ko'p sinovlarni boshdan o'tkazgan ustozlar har qanday masalada yoshlarga otalarcha o'git va maslahatlar berib, ularni to'g'ri yo'lga soladilar, – deydi shahar IIB Faxriylar kengashi raisi, iste'fodagi mayor Furqat Mirjalilov.

Boshqarma Faxriylar kengashi tashabbusi bilan «Uch avlod uchrashuvlari» muntazam o'tkazib kelinadi. Bundan tashqari, salomatligida muammosi bor, ko'makka muhtoj faxriylarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan xayrli tashabbuslar amalga oshirilmoqda.



Chirchiq shahar IIB huzuridagi Tergov bo'limi katta tergovchisi, mayor Jasur Xuseinov 2017-yildan beri soha xizmatida faoliyat ko'rsatadi. U 7-10 tagacha jinoyat ishlari tergov bilan shug'ullanmoqda. Oxirgi vaqtda internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali firibgarlik, kredit, qarz oldi-berdisi bilan bog'liq masalalardagi tergov ishlarida ancha salmoqli natijalarga erishmoqda.

– Jinoyatlarni tergov qilish sohasida ilg'or xalqaro standartlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish kabi ezgu maqsadlar bugun real hayotga tatbiq qilinayotgani g'oyat quvonarli, – deydi mayor Jasur Xuseinov.

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.



► SIZ KUTGAN UCHRASHUV

AZIZ RAJABIY: SAN'ATKORDA MUSIQIY DID BO'LISHI ZARUR

– Avvalo, ushbu sulolaning bir vakili sifatida doimo qalbmida faxr tuyaman. Chunki bobom bastakor, xonanda va sozanda, o'zbek musiqa merosini to'plovchi sifatida xalqimizga juda ulkan ma'naviy meros qoldirdi.

Endi shajaramiz haqida to'xtaladigan bo'lsam, katta avlodlarimizdan Rajabboy ota, Sarimsoq boboda ham musiqaga kuchli havas va layoqat bo'lgan. Ulardan o'tib kelayotgan ana shu layoqat bobom Yunus Rajabiyda yorqin namoyon bo'lgan. Bobomning akalari O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Rizqi Rajabiy ham iste'dodli musiqashunos bo'lganlar. Bobomizning o'n ikki nafar farzandi bo'lgan. Ularning hammasi ham san'at yo'lini tanlamagan bo'lsa-da, ammo har birida ijodkor qalbi, musiqaga bo'lgan ixlosi va qobiliyatining ma'lum qirralari bor. Bu borada otam Hasan Rajabiy bobom boshlagan ulug' yo'lining davomchisi, oilamizning porloq yulduzi bo'la oldi, desam mubolag'a emas. Amakilarim taniqli aktyor, O'zbekiston xalq artisti (Alloh rahmatiga olsin) Obid Yunusov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Tohir Rajabiy, nabiralardan akam Javlon Rajabiy va men shu yo'ldamiz.

– **Ota oilada farzandlarining suyanchi, ishonchi, qalqoni, kezi kelganida esa – taf-tishchi, tanqidchisi bo'ladi. Siz oilada ota-o'g'il, san'atda ustoz-shogird munosabatlari haqida nima degan bo'lardingiz?**

– Otamning ustoz bobom bo'lgan. Men ham bolaligimdan otamning har bir xatti-harakatini zimdan kuzatgan holda ulg'aydim. Ko'pincha ular musiqa va ashulalarni ijro etayotganda, sehlangandek mahliyo bo'lib qolardim. Bu ohanglar yuragimning tub-tubiga cha san'atning sehrini joylaganiga aminman. Ustozlar haqida gap ochilsa, O'zbekiston xalq artisti Xayrulla Lutfullayev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Azim Mulla-xonovning yonlarida yurganman, ulardan san'atning sir-asrorlarini o'rganganman. Hozir o'ylasam, san'atga qiziqishim, musiqani anglashimga sababchi bo'lgan eng birinchi inson otam bo'lgan ekan. Ulardan, boshqa ustozlarimdan o'rganganlarim sabab ozmi-ko'pmi xalqimiz nazariga tushdim. Vaqtida milliy estrada, zamonaviy estrada yo'nalishida qiziqdim, ijod qildim. Hozirda ijodimni ko'proq mumtoz yo'nalishga burganman. Qariyb 25 yildirki otamning yonlarida elning xizmatida yuribman. O'tgan davr ichida qanchadan-qancha



Milliy musiqa san'atimiz rivojiga beqiyos hissa qo'shgan benazir ijodkor, akademik Yunus Rajabiyning o'lmas asarlari xalqimiz uchun nihoyatda qadrlidir. Bastakor olim sulolasining vakili, bugungi kunda o'ziga xos ijrolari xalqimiz qalbidan joy olib kelayotgan xonanda Aziz Rajabiy bilan suhbatimiz avvali ushbu shajara haqida bo'ldi.

qo'shiqlarni o'rgandim, ayni paytda ham o'rganyapman.

Yaqinda ijodiy jamoamiz bilan otamdan o'rgangan qirqa yaqin qo'shiqlar ustida ishladik. Yana chamalasang, bir qanchasi turibdi. Ularning ijrosi, so'zlaridan tortib, yo'nalishlarigacha hamma-hammasi men uchun katta bir bisot, ushbu taronalarni ham sekin-sekin o'rganishda davom etaman.

– **Keyingi paytlarda maqomlarimizni zamonaviylik bilan uyg'unlashtirib kuylayapsiz. Bu ijrolaringizdan qay darajada ko'nglingiz to'ladi, salohiyatli sulolaga munosib izdosh bo'lish borasida o'zingizga qat'iy talablar qo'yasizmi?**

– Insonni yillar davomida to'plangan tajriba pishitadi. To'g'risini aytсам, zamonaviy estrada, yevropa musiqalariga ham qiziqqanman. Vaqt o'tib, maqomlarimiz auditoriyasini kengaytirish uchun nimalar qilish kerak, deb ko'p o'yladim. Biror yangilikni shunchaki o'ylash bilan hech nima o'zgarmaydi, amaliy ishga o'tish, u xatomi, to'g'rimi, o'sha qadamni bosib ko'rish kerak. Hozir shu qadamlarni sekin-sekin bosib kelyapman.

Bizning maqomlarimiz bir ovozli. Ya'ni, hofiz aytgan yo'lni o'nta musiqachi bir xil chaladi. Endi biz konservatoriyada garmoniya degan fanni o'qidik. Garmoniya – ko'p ovozlik, degani. Mumtoz musiqalarimizni garmoniyaning ichiga solishga harakat qildik. Hozirgi aranjirovkalarimda ham mumtoz musiqalarni yo'nalishini buzilmagan holda ko'p ovozli instrumentlar sintez qilamiz. Masalan, uni ichiga

sintezator, bas, baraban uyg'unlikda asl musiqa ohanglariga xalaqit qilmaydigan yoqimli kuy yaraladi. Bunda, albatta, me'yorni belgilay bilish kerak. Agar qo'shimchalar ko'payib ketsa, bachkana, kamaysa yana eski holatiga kelib qoladi. Me'yorini sezish uchun ijodkorda musiqiy did va savodxonlik bo'lishi kerak.

Madaniy tadbirlarda, xalq xizmatlarida mumtoz maqomlarimizga zamonaviy ohanglar qo'shilgan ijrolarim muxlislarga manzur bo'layotgani haqida iliq fikrlar eshitayapman. Endilikda shu yo'nalishdagi ijrolarimni ko'paytirish niyatidaman.

– **Yoshlarning zamonaviy estrada, mumtoz ashulalar ijrosidagi kamchiliklari nimalarda yaqqol seziladi?**

– Men yoshlarga birdan noto'g'ri ijro qilayapsan, deb kutilmaganda tanbeh berish fikriga qarshiman. Avvalo, ularni bor yutug'ini tilga olib, ruhlantirib, keyin bir taklifdek o'rgatish, tushuntirish kerak. Toki, yoshlar xato qilishdan cho'chimasin. Ochig'ini aytaman, menga ham «Mumtoz qo'shiqlar bilan zamonaviylikni aralashtirmagin» deya tanbeh berishgan. Ammo bir tadbirda san'atshunos olim Otanazar Matyoqubov meni chetga olib, «Aziz, esingdami ijodingni yangi boshlagan paytingda Bayot soqiynomalarni zamonaviy estradada ijro qilganding» deya gap boshladilar. Hozir bular ham e'tiroz bildirsalar kerak, deb o'ylab tursam, yo'q. «1973-yil biz konservatoriyada birinchi kurs talabasi edik. Yunus Rajabiy an'anaviy ijrochilik fakultetining ochilishiga kel-

ganlarida «Bolalarim, biz maqomlarni o'zimizni zamonamizga mos qilib o'rgandik, o'rgatdik. Endi sizlar o'z dunyoqarashlaring bilan yangi talqinda ijro qilib, maqomni yoshartiringlar, faqat ohangi, yo'li buzilmasin», deya ta'kidlagan edi. Senda shunday yangi ijrolar bor, shu ishlarda davom qil» deb qoldi. Bilasizmi, o'shanda bu fikr meni qanchalik ruhlantirgan. Demak, biz ham yoshlarning yuragidagi shaxtini, yonib turgan shijoatini so'ndirib qo'ymasligimiz kerak.

Yunus Rajabiyning yuzlab shogirdlari bo'lgan va har biri bilan alohida yondashib, qo'shiqchisiga kuylashni, sozandasiga chalishni o'rgatgan. Bu jihatdan bobomni psixolog degan bo'lardim. Yana bir gap, odam xato bilan rivojlanaadi, o'zini baholashni o'rganadi. Hozirda O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat institutida yoshlarga dars beraman. O'z shogirdlarimni ham aynan shunday yo'l bilan shakllantirishga harakat qilaman.

– **Bizning ko'p sonli mushariylarimiz asosan ichki ishlar organlari xodimlari. Ularning xizmatiga qanday baho berasiz?**

– Biz ulg'aygan «Xalqlar do'stligi» mahallasida Nail Valiulin degan profilaktika inspektori ishlardi. U katta-yu kichikni birdek tanir, biror bir hodisa e'tiboridan chetda qolmasdi. Hammamiz u kishini yaqin olib, Nail aka der edik. U 1997-yil 2-dekabr kuni yarim tunda mahallamizga oralagan jinoyatchilar bilan olishuvda yaralangan. Suvdan quruq chiqishni uddalay olmagan jinoyatchilar aholi yashaydigan xonadonlarga granata uloqtirishga uringanda, hushyor inspektor jon-jahdi bilan granatani zararsizlantirishga kirishgan. Va olgan jarohatlari sabab olamdan o'tgan. O'sha vaqtda yosh edik. Biroq o'z vazifasiga sodiq xodimning mardligi, jasorati tufayli tinch aholiga ziyon yetmagani haqidagi gap-so'zlar kechagidek qulog'imda qolgan.

Hozir ham tadbirlarda, ko'cha-ko'yda YPX xodimlari bilan qadrdonlardekmi. Ular xatoyimiz bo'lsa ogohlantirishadi. Tan olib aytishim kerak, bir paytlar yoshlik qilib, yo'lda qoida buzganman, jarima ham to'laganman. Ammo keyingi vaqtda eng tartibli haydovchilardanman, deya bemaolol ayta olaman.

Tilagim, osoyishtalik posbonlari shu yurtning koriga yarashdek ezgu maqsad yo'lidagi xayrli ishlarida hamisha zafar quchsinlar.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA suhbatlashdi.

ТАШКЕНТСКАЯ ОБЛАСТЬ

С ЗАБОТОЙ О ЖЕНЩИНАХ

Обеспечение прав и интересов женщин, повышение их социально-политической активности является важным направлением стратегии развития Нового Узбекистана.

Последовательные реформы, осуществляемые в последние годы, конкретные инициативы по всесторонней поддержке женщин служат основными факторами укрепления института семьи. Одновременно совершенствуется национальное законодательство в сфере предупреждения насилия в отношении женщин, обеспечения их прав и свобод.

Свой вклад в это вносит старший инспектор по вопросам женщин отделения профилактики правонарушений Чирчикского городского управления внутренних дел

подполковник Феруза Мирхайтова, имеющая стаж службы в органах внутренних дел без малого 24 года.

В данной сфере Феруза Мирхайтова работает пять лет. Она ведет изучение по своему направлению в 44 махаллях. Особое внимание уделяет женщинам, попавшим в тяжелые социально-бытовые условия, содействует решению их проблем, в частности, обеспечению занятости. В рамках полномочий совместно с другими организациями оказывает необходимую помощь и поддержку.



В настоящее время она проводит профилактические беседы и мероприятия в трех ма-

халлях с повышенным криминогенным фоном. За истекший период времени в городе Чирчике

охранные ордера выданы 97 женщинам.

Аброр ПОЁНОВ,
соб. корр.

К ДНЮ ПАМЯТИ И ПОЧЕСТЕЙ

ПАТРИОТИЗМ НАЧИНАЕТСЯ С ДЕТСТВА

В целях организации воспитательно-профилактической работы с молодым поколением сотрудниками органов внутренних дел была организована экскурсия в мемориальный комплекс «Парк Победы» и государственный музей «Славы».

Учащиеся общеобразовательной школы № 31 сопровождали инспектор профилактики махаллинского схода граждан «Соғбон» майор Одилжон Турсунов, сотрудник отдела агентства по делам

молодежи Камолитдин Джамолитдинов, заместитель начальника медицинского отдела ГУВД Ташкентской области подполковник Комил Курбонов и другие ответственные лица.



Нужно отметить, что поездка в этот комплекс привлекает молодежь и увеличивает их любовь к Родине, побуждает

брать пример благородства и человечности, унаследованные от наших предков. Здесь учащиеся содержательно провели время, осмотрели исторические справки и экспонаты, показывающие, насколько патриотичным и самоотверженным был наш народ.

Соб. корр.



MA'RIFAT BO'STONI

Har kimki, xaloyiq ichra dono ko'rinur,
Oyini xirad aro tavono ko'rinur.
Faxr asl bila ajab tamanno ko'rinur,
Faxr aylasa fazl birla avlo ko'rinur.

Alisher NAVOIY.

TEMIRNING BAHOSI

Bir uyum zanglagan temir bir puldir. Uni quyma kilosi 1000 so'm turadi. Agar quyma kilosini eritib bolta yasalsa bormi, 10 ming so'mga sotiladi. Shuningdek, bir kilo temirdan ignalar yasalsa, u 100 ming so'mga aylanadi. Yana undan qo'l soati uchun mayda mexanizmlar tayyorlansa, bu bir kilo temir million so'm bo'ladi.

Sizning bahoyingiz nima yasay olishingizda. Do'stlarim, faqat hayotda o'zingizdan zanglagan qulf yasab olmangiz. Bu holda, qadringiz bir pul bo'ladi. Aslo bularni unutmangiz...

BIR HOVUCH DUR

- O'zingnikigina emas, o'zgalarning nodonligi ham yozishga xalaqit beradi.
- Kitob – boylik. Lekin sotib olingani emas, o'qilgani.
- Eshik yopilganda jimlikning etagi qisildi.
- Laganbardor boshliqning erish nuqtasini biladi.
- Yozuvchi sayoz joyida cho'kadi.
- Yozuvchi yolg'onni to'qiydi-yu, haqiqatni yozadi.
- Baxt – boylikda, desangiz, hamma baxtsiz. Chunki aqlliga ko'p narsa kerak emas, ahmoq esa baribir to'ymaydi.
- Qalam so'zning soyasini chizadi.
- Mix bolg'adan qochib qutulaman deb, taxtaga kirib ketdi.
- Mehnatni rohatga aylantirishni xayol qilar edik, rohat mehnatga aylandi.
- Xudo insonni bir umr baxt izlash azobi bilan jazolagan.
- Ba'zilar haqida yaxshi gapirsang, laganbardor bo'lasan, yomon gapirish –xavfli.

Asqad MUXTORning «Uyqu qochganda...»
tundaliklar kitobidan.

KITOBDAKI HAYOT

Haqiqatan ham, kitoblarda o'zga bir olam ochilardi. Undagi odamlar ham o'zgacha, turarjoylari ham. E-he, katta-katta shaharlar, mashinalar, tramvay-trolleybuslar, bularning hammasi bizga kelajakda yetishuvimiz mumkin bo'lgan antiqa bir olam edi.

Shukur XOLMIRZAYEV,
O'zbekiston xalq yozuvchisi.

ICHIDAN PISHGAN



Xorazm qovunlari, lalmi tarvuzchalar ko'rinishda juda ko'rimsiz, xamakday tuyulsa-da, aslida ichidan pishgan, shirin bo'ladi. Inson hayotiga ko'chirilganda, ichidan pishgan iborasi juda pishiq, qipchagar, puxta, mug'ombir, ishning ko'zini biladigan, bilgani ichida odam ma'nolarini beradi. Ichidan pishib yuribdi, deganda, kekxa kishilarni qovunday pishib yuribdi, bir kun uzilganini bilmay qolasan, deyishadi. Ichidan pishgan – ketidan qarigan, iborasining muqobilidir.

Mahmud SATTORning «O'zbekning gapi qiziq»
kitobidan.

DO'STLIK

Bir kishi biroz pulga muhtoj bo'lib qoldi, do'stidan yordam olish maqsadida uning uyiga kelib eshikni taqillatdi. Do'sti chiqib, u bilan ko'rishdi, uyga taklif qilsa ham, u kishi qabul qilmay:

– Do'stim, meni kechir, uyga qilgan taklifingni hozircha qabul eta olmayman, vaqtim ziq. Bir kishidan yuz so'm qarzdor edim, bugun kelib pulini qistadi. Qo'limda pul yo'q edi. Shuning uchun sening huzuringga keldim, yordam etarsan deb umid qilaman, – dedi.

Uy egasi darhol ichkaridan yuz so'm olib chiqib, do'stining qo'liga berdi.

– Do'stim, biror narsaga muhtoj bo'lib qolsang, mendan yashirma, qo'limdan kelganча yordam berishga tayyorman, –



deb do'stining ko'nglini ko'tardi. Do'sti xursand bo'lib, u bilan xayrlashib uyiga qaytdi.

Uy egasi do'sti qaytib ketgandan keyin yig'lab uyiga kirdi. Xotini: «Erim ko'p pul berib yuborganiga pushaymon qilib yig'layotgan bo'lsa kerak», deb eriga:

– Biror narsani bahona qilib pul bermasdan qaytarib yuborsangiz bo'lmasmidi? Endi pushaymon qilib yig'laysiz, – degan edi, eri shunday javob berdi:

– Yo'q, sen o'ylaganча emas, do'stim pulga muhtoj bo'lib qolganini bilmaganman. U kelib so'ramasdan oldin o'zim borib: «Do'stim, biror narsaga muhtojmasmisan, tortinma, ayt», deb so'rashim kerak edi. G'aflatda qolganimga achinib yig'layman...

«Oz-oz o'rganib dono bo'lur» kitobidan.

BUXOROGA BUXORO KELDI

Buxoroning obidalari
Ming yillardan beradi xabar:
«Xor bo'lasan, mute bo'lasan,
Buyukliging unutsang agar!»

Buxoroning obidalari
Hikmat erur moziydan, inon:
«Buyuklarni buyuk aylagan
E'tiqod-u erk hamda iymon!»

Buxoroning obidalari
Har kun yangi hikmat aytadi.
O'tmishni-da, kelajakni-da,
Men tomonga olib qaytadi.

Sadridin Salim BUXORIY.

JAZONI IJRO ETISH TIZIMIDA

INSON SEVGAN SOHASIDA ISHLASHI KERAK

Ulug'bek Farmonov Navoiy davlat pedagogika institutining pedagogika-psixologiya fakultetini bitirgach, ikki yil davomida Navoiy shahridagi 12-sonli ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabida bosh psixolog bo'lib ishladi. Ammo ota kasbi sababmi, Ulug'bekning ichki ishlar sohasiga mehri bo'lakcha edi. Bu haqda so'z ochganida, Faxriddin aka:

– O'g'lim, inson sevgan sohasida ishlashi kerak, – dedi.

Bu gap Ulug'bekka katta dalda bo'ladi va u 2020-yili IIV huzuridagi JIED Beshinchi mintaqaviy hududiga qarashli 4-son JIEKda psixolog lavozimida faoliyatini boshladi.

Tizimli o'tkazilgan tadbirlar, yakka tartibdagi suhbatlar va uchrashuvlar psixolog bilan mahkumlar o'rtasida mustahkam ishonch ko'prigi yasadi.

– Muassasada jazo muddatini o'tayotgan ba'zi mahkumlarning ota-onasi yoki boshqa yaqini olamdan o'tib qolishi mumkin. Ana shunday paytlar ular uchun juda og'riqli kechadi, – deydi katta leytenant Ulug'bek Farmonov. – Sababi, ularda aybdorlik hissi, ayniqsa, ota-onasining vafotida o'zini ayblash tuyg'usi kuchayib ketadi.

Faoliyatim davomida esda qolarli voqealar ko'p bo'lgan. Masalan, qotillik jinoyati sodir etib, uzoq yilga ozodlikdan mahrum etilgan bir yigit nihoyatda tushkun holatda edi. «Birovning umriga zomin bo'ldim. Ota-onamning yuzini yerga



qaratdim», deya mudom o'zini ayblardi. U bilan uzoq ishlab, bu vaziyatdan olib chiqqanman. Hozirda u manzil-koloniya jazo muddatini o'tamoqda. Xatolarini anglab yetgan, ozodlikka chiqqach, faqat yaxshi inson bo'lishga ahd qilgan.

Lavhamiz qahramoni ota-onasining duolarini olib, xizmatga o'tlanadi.

Hozirgi kunda Jazoni ijro etish departamenti Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish boshqarmasi psixologi lavozimiga tayinlangan Ulug'bek Farmonovning endigi vazifasi yanada mas'u-

liyatli, ya'ni muassasalardagi psixologlarning bilim salohiyatini va kasb mahoratini oshirishdan iborat.

Ulug'bek Farmonov ustozlari Faxriddin Ermatov va Orif Barakayevlarning nomlarini doimo hurmat-ehtiram bilan tilga oladi. Darvoqe, u hozirda ikkinchi mutaxassislik bo'yicha Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Samarqand filialida sirtqi ta'lim yo'nalishida tahsil olmoqda.

Xadicha O'TAYEVA,
kapitan.

ORAMIZDAGI ODAMLAR

YORDAMCHINING
KO'MAGI MUHIM

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Olimjon Xo'jayev Toshkent temiryo'l kollejida o'qib yurgan kezlarda ichki ishlar organi xodimi bo'lishni niyat qilgan edi. Ta'lim muassasasini tugatganidan so'ng, mahallalarda profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchilari xizmatga qabul qilinayotgani haqida eshitib, hujjatlarini topshirdi.

Tanlovdan muvaffaqiyatli o'tgan lavhamiz qahramoni Yashnobod tumanidagi «Yangi davr» mahallasida faoliyatini boshladi. Keyin uni «Jarqo'rg'on» mahallasida joylashgan 274-ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika katta inspektori yordamchiligiga o'tkazishdi.

– Mahallamizda 56 ta ko'p qavatli va 54 ta yerli xonadon mavjud bo'lib, ularda 2500 nafardan oshiq aholi istiqomat qiladi, – deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Kamoliddin O'rinboyev. – Olimjon har bir fuqaroni yaxshi biladi. Biz bilan birga doim ularning yaxshi-yomon kunida yonida turadi.

– Olimjon mahallada istiqomat qiluvchi voyaga yetmaganlar, yoshlar bilan xuddi o'z ukalaridek munosabatga kirishib, ular o'rtasida huquqbuzarlik hamda jinoyatchilikning oldini olishda bizga yaqin ko'makdosh bo'lib kelmoqda, – deydi profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Quvonchbek Kukuzov. – Shuningdek, profilaktik hisobda turuvchi shaxslar bilan muntazam ravishda suhbat olib boradi. Hatto u yaqinda tungi vaqtda giyohvandlik vositasi bilan bog'liq bir jinoyatni «issiq izida» ochishda bevosita ishtirok etdi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

KECHA

Sirdaryo viloyati Xovos tumani IIB binosi

BUGUN



1987-yil



2024-yil



TURIZM



KO'HNA KESH – JAHON NIGOHIDA

Shahrisabz shahrida viloyatda turizm infratuzilmasini yaxshilash, ekoturizm, etnoturizm va boshqa yo'nalishlarda imkoniyatlarni yuksaltirish, hududning nomoddiy merosini keng ochib beruvchi madaniy tadbirlar, turizm tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha xalqaro festival bo'lib o'tdi.

Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar Turizm vazirlarining 2022-yil 17-dekabr-dagi IV yig'ilishida YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan Shahrisabz shahriga «2024-yil – IHT turizm poytaxti» maqomi berildi. Shu munosabat bilan Turkiya, Eron, Tojikiston, Pokiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston va Ozarbayjondan kelgan delegatsiyalar ishtirokida qadim Keshda qator madaniy-ma'rifiy tadbirlar bo'lib o'tdi.

Xorijlik mehmonlar dastlab Shahrisabz shahridagi «Dor ut-Tilovat», Dor ut-Siyodat», «Oqsaroy» majmualari, Chubin madrasasida joylashgan muzey va boshqa tarixiy obidalar bilan tanishishdi. Shundan so'ng «Shahrisabz – Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti turizm poytaxti» mavzusida a'zo davlatlarning yetakchi rasomlari ishtirokida ko'rgazma tashkil etildi. «Shahrisabz culinary competition» xalqaro gastronomik festivali, IHT davlatlari I xalqaro etnosport o'yinlari, «International folk» xalqaro festivali, yosh dizaynerlar ishtirokida «Modest fashion show» va sahnalashtirilgan

koncert dasturi ham bo'lib o'tdi. «Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti hududida chegarasiz turizm» mavzusida sayyohlik forumi, tashkilot bosh kotibiyati va tashkilotga a'zo davlatlar rasmiylari ishtirokida yig'ilish, shuningdek, boshqa rasmiy va madaniy tadbirlar ham zo'r ko'tarinkilik bilan o'tkazildi.

Ta'kidlash joizki, xalqaro tadbir davomida chet ellik mehmonlar, festival ishtirokchilari, sayyohlar, delegatsiya a'zolari xavfsizligi namunali ta'minlandi. Viloyat IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi shaxsiy tarkibi, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlari tomonidan olib borilgan xizmat davomida xorijiy va mahalliy fuqarolarga nisbatan yoki ular tomonidan jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi, shuningdek, ko'ngilsiz hodisalar qayd etilmadi.

Javlonbek ALLAYEV,
kapitan.
Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



SALOMATLIK SABOQLARI

QUYOSH NURIDAN SAQLANING!

Bahor kelishi bilan quyoshning zarrin nurlari butun borliqqa hayot ulashadi. Biroq bahor quyoshidan saqlanish ham kerak. IIV Markaziy poliklinikasi shifokor-dermatologi Ravshan Muhamedov tavsiyalari aynan shu xususida.

– Bahorda quyoshning ultrabinafsha nurlanish indeksi oshishi kuzatiladi. Nurlanish qoq tush payti maksimal darajaga yaqinlashib, to 16:00 gacha yuqori faolligini saqlab turadi. Xo'sh, buning nimasi xavfli? Gap shundaki, xuddi shunday sharoitda terining quyosh nuriga sezgirligi oshishi natijasida fotodermatoz kasalligi yuzaga keladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozir bu xastalik dunyo aholisining taxminan 20 foizida uchraydi.

Aslida, quyosh nurining o'zi allergen hisoblanmaydi. Biroq ultrabinafsha nurlanish teri yoki inson tanasidagi har qanday modda bilan o'zaro ta'sirga kirishganda, allergik reaksiya paydo bo'lishi mumkin. Oqibatda bo'yin, qo'l sohalari va ko'krakning yuqori qismida pufakcha, qavariq, qizil dog', kuyish ko'rinishidagi turli toshmalar yuzaga keladi. Ba'zan terining qipiqanishi, qichishishi va shishlar ham kuzatiladi. Toshmalar oftob

ta'sir qila boshlagan ilk soatlardan to hafta davomigacha hosil bo'ladi. Ko'pincha fotodermatoz belgilari muolajalardan so'ng yo'qolib ketadi. Ammo bu holat insonni umr bo'yi ta'qib qilishi ehtimoli ham mavjud.

Ayni sababdan bahorning oftobli kunlarida soat 12:00dan 16:00gacha quyosh nurlari ostida uzoq vaqt yurmaslik, agar zarurat tug'lsa, bosh kiyim kiyish yoki soyabon tutish, ko'zoynak taqish, imkon qadar yopiq liboslar kiyish va albatta, quyosh nuridan saqlovchi kremlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sezuvchan teri uchun mo'ljallangan quyosh nuriga qarshi kremlardan foydalanish mumkin. Lekin ba'zi dorilar fotodermatozni keltirib chiqarishi yoki xastalikni kuchaytirishini unutmaslik kerak. Shu bois preparatni qo'llashdan oldin shifokor bilan maslahatlashish zarur.

Shuningdek, oziqlanish ratsionini o'zgartirish tavsiya etiladi. Ko'proq



suv ichish, spirtli, tarkibida kofein moddasi bor ichimliklardan tiyilish lozim. Yog'li sut va go'sht mahsulotlar iste'mol qilmang, ammo baliq va sabzavot mahsulotlaridan voz kechmaslik zarur. Sutli mahsulotlar xarid qilishda rastalarda

quyosh nuri tushib turgan hamda iste'molga yaroqlik muddati o'tib ketgan mahsulotlarni sotib olmaslik kerak.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA
yozib oldi.

ЗДОРОВЬЕ

ФАРИНГИТ – ПРИЧИНЫ, СИМПТОМЫ, ЛЕЧЕНИЕ

Фарингит – это воспаление слизистой оболочки и лимфоидной ткани глотки. Чаще всего болезнь вызывают вирусы, однако травмы и вредные условия окружающей среды также могут стать причиной неприятных симптомов.



ПРИЧИНЫ ЗАБОЛЕВАНИЯ

Подавляющее число случаев острого фарингита вызвано инфекцией, причем 70% из них – вирусной природы. Возбудителями становятся преимущественно вирусы, вызывающие ОРВИ – вирусы гриппа, парагриппа, аденовирусы, риновирусы и прочие. Причиной бактериального фарингита обычно являются стрептококки. В отдельных случаях заболевание вызывается патологическими грибами.

Хронический фарингит может развиваться как следствие острой или хронической инфекции верхних

дыхательных путей, а также при длительном раздражении слизистой оболочки глотки пылью, сажей и другими химическими и механическими агентами.

СИМПТОМЫ ФАРИНГИТА:

- першение в горле;
- боль в горле (более сильная при пустой глотке, нередко отдает в уши);
- сухость глотки;
- дискомфорт, чувство инородного тела в горле;
- повышение температуры тела;
- сухой навязчивый кашель.

ФАРИНГИТ



Симптомы



Лечение



ДИАГНОСТИКА ФАРИНГИТА

В диагностике острого фарингита ключевое значение имеет фарингоскопия, определение возбудителя и лабораторное обследование.

Конечно же, не каждый эпизод боли в горле заставит обращаться к врачу. Однако следует понимать, что далеко не всегда можно самостоятельно отличить

течение бактериальной инфекции от вирусной.

При подозрении на хронический фарингит следует обязательно обратиться к терапевту для определения причин заболевания и решения вопроса о лечении.

ЛЕЧЕНИЕ ФАРИНГИТА

Рекомендуется обильное теплое питье до 1,5–2 литров в сутки, из рациона исключают раздражающую

пищу (горячую, холодную, кислую, острую, соленую). Местное лечение включает в себя рассасывание пастилок и леденцов с антисептическим действием, ингаляции для увлажнения слизистой, полоскание горла растворами антисептиков, использование аэрозолей. В случае установленной бактериальной природы заболевания врач может назначить антибиотики.

Перед применением проконсультируйтесь с врачом.



Молодежь — наше будущее

ПУТЬ К ПОБЕДАМ

На Кубке Узбекистана по каратэ (WKF) среди юниоров и взрослых, состоявшемся в Джизаке, старший инспектор группы по организации профилактики правонарушений среди несовершеннолетних и молодежи УКД ОВД по городу Андижану лейтенант Мохларойим Хакимжонова завоевала золотую медаль в весовой категории до 68 килограммов.

В личной копилке М. Хакимжоновой уже более ста медалей разной пробы и семь кубков. Наиболее запомнилась девушке первая бронзовая награда, завоеванная в 2011 году на чемпионате Узбекистана по каратэ среди юниоров.

Потом она стала победительницей проходившего в Малайзии чемпионата Азии по каратэ, заняла второе место на спортивных играх стран СНГ в Минске, стала обладательницей золотой медали на чемпионате мира по каратэ в Ташкенте, завоевала золотую медаль на турнире в Кыргызстане, заняла первое место на чемпионате Узбекистана по каратэ.

Мохларойим Хакимжонова выпускница Андижанского государственного университета. После окончания учебного заведения девушка работала преподавателем физкультуры в школе № 15 города Андижана. В органах внутренних дел служит с 2022 года.

Соб. корр.

Андижанская область.




К Дню памяти и почестей

«ТАШКЕНТ» — ГЕРОЙ ОБОРОНЫ СЕВАСТОПОЛЯ

В июне–августе 1941 года эсминец «Ташкент» принял участие в обороне Одессы, в ходе которой 30 августа попал под авианалет немецкой авиации и получил серьезные повреждения корпуса. После возвращения в строй с октября 1941 года по июнь 1942 года принимал участие в обороне Севастополя. Всего с начала войны прошел 27 000 морских миль, перевез 2538 т боеприпасов и 19 300 человек, участвовал в конвоировании 17 транспортов, провел около сотни боевых стрельб главным калибром. В результате действий корабля было повреждено или сбито 13 самолетов противника, уничтожен аэродром и шесть артиллерийских батарей.

27 июня 1942 года эсминец «Ташкент» получил множественные поврежде-



ния корпуса во время возвращения из Севастополя, став последним кораблем, прорвавшимся в город перед занятием его немецкими войсками, но сумел вернуться в Новороссийск,

несмотря на угрозу затопления. Во время подготовки к переходу на ремонт в Поти 2 июля 1942 года эсминец был потоплен прямым попаданием авиабомбы в порту Новороссийска.

MUNAJJIMLAR BASHORATI

(6-maydan 12-maygacha)



Qo'y. Sokinlikda yoki tabiat qo'ynida ko'proq dam olishga e'tibor qarating. Biroq hordiq uchun ortiqcha sarf-xarajatga berilib ketmang, chunki bu davrda moliyaviy jihatdan biroz qiyinchilik yuzaga kelishi mumkin. Hafta davomida ziddiyatlarning oldini olishga, yon-atrofdagilar bilan xushmuomala bo'lib, ular bilan aslo bahslashmaslikka harakat qiling.



Buzoq. Moliyaviy mablag' sarflarini yaqinlaringiz bilan obdan maslahat qilgan holda amalga oshiring. Lekin shaxsiy hayotga bog'liq qarorlarni mustaqil qabul qilishga harakat qiling. Bu hafta vaqtincha ishni va oilaviy tashvishlarni bir chetga surib, o'z qiziqish va sevimli mashg'ulotlaringiz uchun vaqt ajrating.



Egizaklar. Do'stlar bilan kelishmovchiliklar kelib chiqishi mumkin, biroq haqiqat siz tarafda bo'ladi. Ushbu hafta jismoniy mehnat bilan shug'ullanish va parhez saqlash uchun maqbul davr hisoblanadi. Bunda sizdan ortiqcha sa'y-harakat talab etilmaydi, lekin natija kutilganidan ham a'lo bo'lishi ehtimoli yuqori.



Qisqichbaqa. Katta tajribaga ega odamlarning maslahatlariga jiddiy e'tibor qarating. Hafta davomida barcha ishlarni to'g'ri taqsimlashga harakat qiling. Hafta boshida hushyor bo'ling: yaqinlaringiz sizga pand berishi mumkin. Dam olish kunlarini oila davrasida o'tkazing.



Arslon. Katta ahamiyatga ega bo'lgan jiddiy loyihalarga hozircha qo'l urmaganingiz ma'qul. Ammo uy ishlari va tashvishlarini hal etishni aslo ortga surmang. Bu hafta xonadoningizda yengil ta'mir yoki katta tozalash ishlarini amalga oshirish uchun qulay davr.



Parizod. Mas'uliyatsiz insonlarga qarz bermang. Ish faoliyatingizga jiddiy e'tibor qarating. So'nggi paytlarda yig'ilib qolgan hujjatlarni tartibga keltirib, o'z o'rniga saralab chiqing.



Taroz. Ish joyingizda sizni yutuqlar kutmoqda. Ko'p vaqtigingizni olgan loyiha, va nihoyat, muvaffaqiyat qozonadi. Hamkasblar bilan munosabatlar yanada mustahkamlanadi. Bu davrda oilaviy masalalarni hal etish uchun ham imkoniyat tug'iladi.



Chayon. Kelayotgan hafta atrofdagi odamlar orasidagi obro' va nufuzingizni oshirish, ijodkorlik va hamkorlikni rivojlantirish uchun maqbul davrdir. Avvalo, tashqi ko'rinish va salomatlikka jiddiy e'tibor qarating. Ta'bni xira qiluvchi va ko'ngilni og'rituvchi barcha holatlardan imkon qadar uzoqlashing.



O'qotar. Anchadan beri qiynab kelayotgan oilaviy muammolarning yechimini topish imkoniyati tug'iladi. Mazkur hafta ish bilan bog'liq tadbirlarda ishtirok etish uchun maqbul davrdir. Haftaning ikkinchi yarmida kelgusida hayotingizni o'zgartirib yuborishga qodir yangi tanishuvlar kutmoqda.



Tog' echkisi. Qiyin va mushkul ishlarga faqat suyanchingiz bo'lsagina kirishing. Ayrim vazifalardan voz kechishga to'g'ri keladi. Bu davrda berilgan qarz qo'lingizga ancha muddat o'tib qaytishini inobatga olib, harakat qiling. Bu haftada rejalashtirilgan barcha yumushlar ko'ngildagidek amalga oshadi.



Qovg'a. Bu hafta siz uchun omadli kelishi mumkin. Bundan unumli foydalangan holda ish joyida va oila orasidagi munosabatlarni yaxshilash va mustahkamlashga harakat qiling. Yaqinlaringizga ko'proq mehr ko'rsating. O'z tashabbusingiz bilan ko'ngilsizliklarni oqilona bartaraf etishga harakat qiling.



Baliq. Ish joyingizda raqobat kuchayishi kuzatilishi, bu hatto siz uchun ishsiz qolish bilan yakunlanishi ham mumkin. Imkon qadar norozilik va g'azabni jilovlashga harakat qiling, atrofdagilar bilan zinhor bahslashmang, yaxshisi, kuch-g'ayratni oila ichidagi munosabatlarni mustahkamlashga sarflang.

«AMIR TEMUR IZDOSHLARI» BILIMLAR SINOVİ

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori ijrosini ta'minlash hamda kuch tuzilmalari tasarrufidagi harbiy-akademik litseylarda tahsil olayotgan iqtidorli o'quvchilarning bilim salohiyatini namoyon etish maqsadida o'tgan yildan boshlab fan olimpiyadasi o'tkazib kelinyapti.

2023-yilda mazkur fan olimpiadasi birinchi marotaba Farg'ona viloyatida tashkillashtirilgan bo'lsa, bu yilgi musobaqalar Qoraqalpog'iston Respublikasida o'tkazildi. Unda



Respublikada faoliyati yo'lga qo'yilgan harbiy-akademik litseylarning o'quvchilari qatnashishdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, umumjamoa hisobida faxrli I o'rinni O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Nukus «Temurbeklar maktabi» harbiy-akademik litseyi, II o'rinni Davlat xavfsizlik xizmati «Yosh chegarachilar» harbiy-akademik litseyi, III o'rinni esa Mudofaa vazirligi Farg'ona «Temurbeklar maktabi» harbiy-akademik litseyi jamoalari qo'lga kiritishdi. G'oliblikni qo'lga kiritgan barcha jamoalar O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

O'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Sportni sev, sport bilan yasha!

MEZBON JAMOA G'OLIB

Har yili Ichki ishlar vazirligi tashabbusi bilan voleybol bo'yicha 18 yoshgacha bo'lganlar o'rtasida o'tkaziladigan O'zbekiston chempionatiga bu yil Navoiy viloyati mezbonlik qildi.



Navoiy shahridagi Olimpiya zaxiralari maktabida yurtimizning barcha viloyatlaridan, shuningdek, poytaxtimiz va Qoraqalpog'iston Respublikasidan kelgan o'g'il bolalar jam bo'lishdi.

Bir necha kun davom etgan musobaqalarning umumiy natijalarga ko'ra faxrli 3-o'rinni Qoraqalpog'iston Respublikasi, 2-o'rinni Qashqadaryo viloyati jamoalari egallagan bo'lsa, mutlaq g'oliblik mezbonlar – navoiylik yoshlarga nasib etdi.

G'olib va sovrindorlar munosib taqdirlandi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

Postda
Ha noqiy

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchi –

Gulnoza TURG'UNBOYEVA

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari
bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



9 772010 535001

Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v

470010860262877031101179001

STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxonalar manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma № 1429.

Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50201 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.



www.postda.uz



t.me/postdarsmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz